

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI XALQ TA`LIMI VAZIRLIGI
NAVOIY DAVLAT PEDAGOGIGA
INSTITUTI
TABIATSHUNOSLIK FAKULTETI

“GEOGRAFIYA VA IQTISODIYOT NAZARIYASI ASOSLARI” KAFEDRASI

“SAMARQAND VILOYATI AHOLISINI TABIIY
HARAKATINING HUDUDIIY TAFOVUTLARI” MAVZUSIDAGI

BITIRUV MALAKAVIIY ISHI

Bajardi: “Geografiya va iqtisodiy bilim
asoslari” ta’lim yo’nalishi bitiruvchi 4 kurs
talabasi BERDIEV A.Z.

ILMIY RAXBAR:
g.f.n. SHODIEV S.R.

Navoiy 2014

Navoiy davlat pedagogika instituti
Tabiatshunoslik fakulteti
Geografiya kafedrası

2012 yil _____ № ____ yig'ilish bayonnomasidan

K O' C H I R M A

Qatnashdilar: dotsent Yu Raxmatov, dotsent B.X. Kalonov, g.f.n. katta o'qituvchi S. Shodiev, katta o'qituvchilar: Z.A. Abdieva, B.S. Urinov, X.T. To'xtaeva, M.M. Kodirova, o'qituvchilar: Sh. Sh. Norov, Yo.R. Bo'ronov, A. Jonzoqov, N.J. Muxammedova.

K U N T A R T I B I:

1.2011-2012 o'quv yili "Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari" ta'lim yo'nalishi bakalavr darajasi bo'yicha yoziladigan bitiruv malakaviy ishlar ilmiy rahbarlari va mavzularini tasdiqlash to'g'risida.

E S H I T I L D I:

Kafedra mudiri, dots. Raxmatov Yu.B: Bitiruv malakaviy ishi mavzulari Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2011 yil 9 iyundagi № 225- sonli buyrug'iga binoan **"Oliy o'quv yurtlarida bakalavr bitiruv malakaviy ishini bajarishga qo'yiladigan talablar"** asosida tanlangan.

Bitiruvchi _____ ning
mavzusi _____

Ilmiy rahbar etib: _____
tayinlanishi taklif qilindi

QAROR QILINDI:

Bitiruvchi _____ ning

_____ bitiruv malakaviy ishi mavzusi
hamda _____ ni ilmiy
rahbar etib tayinlanishi fakultet kengashiga tasdiqlashga tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

dots. Raxmatov Yu.B.

Kabinet mudirasi: Norquvvatova G.I.

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tabiatshunoslik fakulteti

“Geografiya va iqtisodiyot nazariyasi asoslari” kafedrası

“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta’lim yo’nalishi

Tasdiqlayman _____

Kafedra mudiri _____

2012__ yil _____

MALAKAVIY BITIRUV ISHI BO’YICHA TOPSHIRIQ

Talaba _____
(familiyasi, ismi, sharifi)

1. Bitiruv ishining mavzusi

“ _____ ” _____ 2012 yil. Kafedra majlisida tasdiqlangan.

2. Bitiruv ishini topshirish muddati _____

**3. Bitiruv ishini bajarishga doir boshlang’ich
ma’lumotlar _____**

**4. Hisoblash – tushuntirish yozuvlarining tarkibi (ishlab chiqiladigan masalalar
ro’yxati)**

5. Chizma ishlar ro’yxati (chizmalar nomi aniq ko’rsatiladi)

6. Bitiruv ishi bo'yicha maslahatchi(lar)

.	Bo'lim mavzusi	Maslahatchi o'qituvchi I.F.Sh.	Imzo, sana	
			Topshiriq berildi	Topshiriq bajarildi

7. Bitiruv ishini bajarish rejasi

.	Bitiruv ishi bosqichlarining nomi	Bajarish muddati (sana)	Tekshiruvdan o'tganlik belgisi

Bitiruv ishi rahbari _____
(familiyasi, ismi, sharifi) (imzo)

Topshiriqni bajarishga oldim _____
(familiyasi, ismi, sharifi) (imzo)

Topshiriq berilgan sana 2012 yil

“Tabiatshunoslik” fakultetining

“Geografiya va iqtisodiyot nazariyasi asoslari” kafedrası

“Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta’lim yo’nalishi

4- kurs B-guruhi talabasining bitiruv malakaviy ishi dastlabki himoyasining

B A Y O N N O M A S I

Navoiy sh.

«___»_____2012 y.

Talaba Berdiev Asliddin Zayniddinovichning

Bitiruv malakaviy ishi mavzusi Samarqand viloyati aholisini tabiiy harakatining hududiy tafovutlari

.

Ilmiy rahbari: g.f.n.Shodiev S.R.

Bitiruv malakaviy ishining natijalari:

1. Mavzuning dolzarbligi yoritilgan.
2. Mavzuni o’qitishning maqsad va vazifalari. Geografiya ta’limida tutgan o’rni yozilgan.
3. Samarqand viloyati aholisini tabiiy harakatining hududiy tafovutlari keng yoritilgan.
4. Samarqand viloyati aholisini tabiiy harakatining hududiy tafovutlari.
5. Samarqand viloyatiga umumiy ta’rif berilgan.
6. Darsni mustaxkamlash, rivojlatirish va uyga vazifa berish.
7. Mavzuni xulosalash.
8. Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.
9. _____
10. _____

Quyidagi talablarga alohida e’tibor qaratish lozim:

Bitiruv malakaviy ishining mavzusi avvalgi yillarga nisbatan o’zgarganmi?

Bitiruv malakaviy ishining rejasi avvalgi yillarga nisbatan o’zgarganmi?

Adabiyotlar to’liqligi (15 band bo’yicha va yillarning ketma ketligi to’g’ri qo’yilganligi).

BMI da adabiyotlarga xavolalar borligi.

Kichik va xususiy biznesga tadbiq etilganligi (dalolatnoma).

O'quv jarayoniga tadbqiq etilganligi (dalolatnoma).

Bitiruv malakaviy ishidagi asosiy kamchiliklar:

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____
5. _____
6. _____
7. _____
8. _____

Bitiruv malakaviy ishi dastlabki ximoyasida talabaga berilgan savollar:

1. _____
2. _____
3. _____
4. _____
5. _____
6. _____
7. _____
8. _____

Bitiruv malakaviy ish holati haqida yakuniy tavsiyanomalar:

(Bajarilmagan bandlarni ko'rsatgan holda yoziladi)

Himoyaga tavsiya etiladi _____

Himoyaga tavsiya etilmaydi _____

Komissiya raisi:

prof. Yu.K. Yo'ldoshev

A'zolari:

1. _____
2. _____
3. _____

dots. Z.X. Zoirov

dots. G. Sharifjonova

BMI sifatiga javobgar shaxslar:

Kafedra mudiri

dots. Raxmatov Yu.B. _____

(F.I.Sh., imzo, sana)

Ilmiy rahbar

g.f.n.Shodiev S.R. _____

(F.I.Sh., imzo, sana)

BMI ni bajargan talaba

Berdiev A.Z. _____

(F.I.Sh., imzo, sana)

Navoiy davlat pedagogika instituti

Tabiatshunoslik fakulteti

“Geografiya va iqtisodiyot nazariyasi asoslari” kafedrası

2012 yil “___” _____ № _____ yig’ilish bayoni

K O’ C H I R M A

Qatnashdilar: dotsent Yu Raxmatov, dotsent B.X. Kalonov, g.f.n. katta o’qituvchi S. Shodiev, katta o’qituvchilar: Z.A. Abdieva, B.S. Urinov, X.T. To’xtaeva, M.M. Kodirova, o’qituvchilar: Sh. Sh. Norov, Yo.R. Bo’ronov, A. Jonzoqov, N.J. Muxammedova.

K U N T A R T I B I:

2011-2012 o’quv yili “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta’lim yo’nalishi bo’yicha yozilgan bitiruv malakaviy ishlar muhokamasi va ularni himoyaga tavsiya qilish to’g’risida

E S H I T I L D I:

Bitiruvchi _____ ning

Mavzusi: _____

Ilmiy rahbar: _____

Bitiruv malakaviy ishi Davlat ta’lim standartlari va dasturlari talablariga mohiyat va mazmun jihatdan mos keladi.

Q A R O R Q I L I N D I:

Bitiruvchi _____ ning

_____ mavzusidagi bitiruv malakaviy ishi Davlat Attestatsiya Komissiyasiga himoya uchun tavsiya etilsin.

Kafedra mudiri:

dots. Raxmatov Yu. B.

Davlat attestatsiya komissiyasining

R A I S I G A

Navoiy davlat pedagogika instituti Tabiatshunoslik fakulteti kunduzgi
bo'lim IV kurs talabasi _____ning_____

_____mavzusi
dagi bitiruv malakaviy ishi himoya qilish uchun yuboriladi.

Reyting qaydnomasidan ko'chirma, bitiruv malakaviy ishi rahbarining mulohazasi, kafedraning ishni himoyaga tafsila etish haqidagi xulosasi, taqrizlar ilova qilinadi.

Fakultet dekani:

b.f.n.Qo'shoqov A.J.

Navoiy davlat pedagogika instituti
“Geografiya va iqtisodiyot nazaryasi asoslari” kafedrasining Bitiruv
malakaviy ishi haqidagi

X U L O S A S I

IV kurs _____guruhi talabasi _____
_____ning_____

_____mavzusidagi
Bitiruv malakaviy ishi kafedra yig'ilishida muhokama qilingan va davlat attestatsiya komissiyasiga himoyaga tavsiya etiladi.

Kafedra mudiri:

dots. Raxmatov. Yu.B.

MUNDARIJA

KIRISH

I bob. Respublikamizdagi demografik vaziyat

- 1.1 Respublika aholi sonining o'sishi va uning mintaqaviy xususiyatlari
- 1.2 Respublika aholisining hududiy tarkibidagi o'zgarishlar
- 1.3 Aholi tabiiy harakatining geografik jihatlari

ASOSIY QISM

II bob. Samarqand viloyati aholisining tabiiy harakati

- 2.1 Viloyat aholi sonining o'sishi va uning hududiy tafovutlari
- 2.2 Viloyat aholisining tabiiy harakatidagi tadrijiy o'zgarishlar
- 2.3 Aholi tabiiy harakatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-demografik omillar
- 2.4 Samarqand viloyati aholisining milliy tarkibi

III. XULOSA

IV. O'RGANILGAN VA FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

KIRISH

“O`zbekiston xalqining birligi, jipsligi
va osoyishtaligi – bu bizning bebaho
boyligimizdir”
I.A. Karimov.

Mamlakatimizda turli millat vakillarining mavjudiy azal – azaldan unga o`ziga xos tabiiy rang-baranglik baxsh etib kelgan. Millatlarning va madaniyatlarning bir-biriga ta`sir ko`rsatishi mamlakatimizda yashayotgan xalqlarning ma`naviy aqliy boyligi uchun yaxshi manbaga aylangan va ko`p elatlik omili demokratik uzgarishlarni jadallashtirish va ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyotining, fuqarolik jamiyati kurishning ta`sirchan vositasiga aylanib qolgan. Necha ming yillik tariximiz shundan guvohlik bermoqdaki, olijanoblik va insonparvarlik, millatlararo totuvlikka intilish xalqimizning eng yuksak fazilatlaridan xisoblanadi. Bu boradagi an`analar avloddan-avlodga avaylab o`tkazib kelinmoqda. Millatlar o`rtasidagi totuvlar har xil millat vakilining iste`dodi va salohiyatini to`la ruyobga chiqarish uchun sharoit yaratadi va uni Vatan ravnaki, yurt tinchligi, xalq farovonligi kabi ezgu maqsadlar sari safarbar etadi. Bu tuygu va g`oyalarni shakllantirish bolalarda maktab davridanok boshlanadi. Umumta`lim maktablarda geografiya kurslarini o`qitishda Aholi mavzularini o`tishga katta e`tibor beriladi. Bu mavzuni puxta, izchil o`rgatish o`qituvchiga katta ma`suliyat yuklaydi. Chunki aholi soni, tarkibi, joylanishi xususiyatlari o`zgaruvchan tushunchalar bo`lib, bu narsa o`qituvchini tinimsiz izlanishga va o`z bilimini oshirishga undaydi. Aholini o`rganish murakkab va dolzarbligi, uning respublikamiz hayoti va taraqqiyoti bilan chambarchas bog`likligi meni ushbu malakaviy bitiruv ishini yozishga da`vat etdi.

Ijtimoiy manfaatlarga yo`naltirilgan iqtisodiy maqsadlarni amalga oshirishda aholi, uning o`sishi, joylanishi, demografik tarkibi kabi jihatlarini bozor munosabatlariga o`tish davri nuqtai nazaridan o`rganish katta ahamiyatga ega.

Chunki, aholi bilan ijtimoiy ishlab chiqarish chambarchas bog'liq va bu aloqadorlik turli davrlarda, turli hududlarda o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi.

Respublika prezidenti I.A.Karimov O'zbekistonning bozor iqtisodiyotiga o'tishi davridagi asosiy tamoyillarini ishlab chiqishda demografik omillarga ustuvor ahamiyat bergan. Ushbu omilning iqtisodiy, xususan mehnat zahiralarining shakllanishiga bo'lgan ta'sirini ko'rsatish bilan bir qatorda uning ijtimoiy jihatlariga ham e'tibor qaratadi. «O'zbekistondagi demografik vaziyatning o'ziga xosligi, inson salohiyatining rivojlanishi ijtimoiy infratuzilmani, eng avvalo, sog'liqni saqlash va aholiga kommunal-maishiy xizmat ko'rsatishni tegishli darajada rivojlantirishni ham talab qiladi», deb yozadi I.A.Karimov. Bundan ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda ijtimoiy-iqtisodiy islohatlarni chuqurlashtirish va ularni yanada rivojlantirish aholi bilan bog'liq muammolarni atroflicha ilmiy asosda tadqiq etishni taqozo etadi.

Mustaqillik yillarida respublikamizda oila, ona va bola salomatligiga, yosh avlodni ma'naviy-ma'rifiy tarbiyalashga, aholini ijtimoiy muhofaza qilish hamda uning sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashga katta e'tibor qaratilmoqda. Ammo, bu borada hozircha to'la-to'kis o'z yechimini topmagan muammolar ham mavjudki, ularning hududiy jihatlarini o'rganish iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy vazifalaridan biridir.

Ta'kidlash joizki, butun dunyoda va ko'pchilik boshqa davlatlarda bo'lgani kabi mamlakatimizda ham aholi sonining o'sish darajasi yildan-yilga pasayib bormoqda. Masalan, agar o'tgan davrning 60-yillarida aholi sonining o'rtacha bir yillik ko'payishi 3,45 va 70-yillarda 2,95 foizga teng bo'lgan bo'lsa, 1980-1990 yillarda bu ko'rsatkich 2,80 %, 1990-2000 yillarda 2,20 va 2000-2006 yillarda 1,20 foizga tushib qoldi.

E'tiborlisi yana shundaki, O'zbekistonda aholi o'sishi faqat uning tabiiy ko'payishi natijasida sodir bo'lmoqda. Tabiiy ko'payish respublika aholisi sonining o'sishini ta'minlabgina qolmay, balki tashqi migratsiyaning manfiy

qoldig'ini ham qoplaydi. Shu bois aytish mumkinki, respublikamizning demografik rivojlanishida ham o'ziga xos o'tish davri kechmoqda.

Men ushbu malakaviy bitiruv ishimni Samarqand viloyati aholisini tabiiy harakatining hududiy tafovutlari mavzusida bajardim. Ushbu mavzuni yoritishda quyidagi muammoli masalalarni imkon darajasida yoritishga harakat qildim.

- Respublika aholisining tug'ilish va tabiiy ko'payishi ko'rsatkichlarining pasayish intensivligi;

- Aholi tabiiy harakatidagi xususiyatlar viloyat, shahar, qishloq tumanlari va qishloq fuqarolar yig'ini miqyosidagi tahlili;

- Aholi tabiiy harakatidagi hududiy tafovutlar va muammolar joylarning tabiiy sharoiti, demografik holati

- Respublika aholisi sonining mustaqillik yillarida o'sishi va unda tabiiy ko'payishning roli;

- Viloyatlar bo'yicha aholi tug'ilishi va tabiiy ko'payishi ko'rsatkichlari

- Samarqand viloyati misolida tug'ilish koeffitsiyentining ayollarning yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanish xususiyatlari;

- Aholi demografik maylining bozor munosabatlariga o'tish davridagi o'zgarishi;

- Viloyat shahar va qishloq tumanlarining aholining tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish darajasi bo'yicha tabaqalanishi;

- Aholi salomatligi va ekologik muammolari;

- Mintaqa aholisi soni va milliy tarkibi.

I bob Respublikamizdagi demografik vaziyat.

1.1 Respublika aholi sonining o'sishi va uning mintaqaviy xususiyatlari

Keyingi yillarda O'zbekistonda demografik jarayonlar ijtimoiy-iqtisodiy omillar natijasida birmuncha o'zgardi. Fan-texnika taraqqiyoti, ijtimoiy maqsadlarga yo'naltirilgan bozor iqtisodiyoti hamda aholining ma'naviy holatidan kelib chiqqan holda demografik vaziyatda ham o'ziga xos siljishlar kuzatilmoqda. Binobarin, aytish mumkinki, o'tish davri nafaqat iqtisodiyotda, balki demografik jarayonlarda, aholining demografik kayfiyatida sodir bo'ladi. Ammo bu davr maxsus demografiyaga oid, bag'ishlangan, ilmiy jihatdan asoslangan demografik o'tish davridan tubdan farq qiladi.

Ijtimoiy yo'naltirilgan bozor munosabatlariga o'tish davrida O'zbekiston Respublikasi prezidenti tomonidan taklif etilgan besh tamoyil o'z mohiyatiga ko'ra mustaqil davlatning rivojlanishi va taraqqiy etishida katta o'rin tutadi. Chunonchi, to'rtinchi tamoyilning mazmuni quydagicha: "Aholining demografik tarkibini hisobga olgan holda kuchli ijtimoiy siyosatni o'tkazish. Bozor munosabatlarini joriy etish bilan bir vaqtda aholini ijtimoiy himoyalash yuzasidan oldindan ta'sirchan choralar ko'rilishi lozim. Bu bozor iqtisodiyoti yilidagi eng dolzarb vazifa bo'lib keldi va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi."

Mamlakatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar demografik jarayonlarga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Bunda mavjud muhitning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda o'ziga xos demografik vaziyat vujudga keladi.

Keyingi yillarda O'zbekiston aholisining o'sish darajasini, tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payishning o'zgarib, oldingi yillarga nisbatan kamayganligini kuzatish mumkin. 2006 yil 1-yanvar ma'lumotiga ko'ra, respublika aholisi 26312,7 ming kishini tashkil etdi, bu ko'rsatkich 1989 yilga nisbatan 6532,7 ming kishiga ko'paygan yoki 133,02 foizga o'sdi. Mazkur yillarda o'rtacha yillik ko'payish 1,70

foizga teng. Bu davr mobaynida shahar aholisi 8059,3 ming kishidan 9495,1 ming kishiga yetdi, ya'ni 1435,8 ming kishiga ko'paydi. qishloq aholisi esa 11720,7 ming kishidan, 16817,6 ming kishiga ortdi, bunda aholi 5096,9 mingga ko'paygan. Natijada, ko'rilyotgan vaqt oralig'ida shahar aholisi 117,8 %, qishloq aholisi 143,5 foizga o'sib, o'rtacha yillik ko'payish 0,95 va 2,15 foizga teng bo'ldi.

Davlatimiz mustaqillikka erishganidan so'ng yangi davrni, ya'ni bozor iqtisodiyotiga o'tish, o'z rivojlanish yo'lini tanlab oldi. Ma'lumki, har bir davlatning yangi rivojlanish yo'liga o'tishida iqtisodiyotini izga tushirish uchun ancha vaqt kerak bo'ladi. Ushbu davr mobaynida mazkur davlatda ayrim ijtimoiy-iqtisodiy muammolarning kelib chiqishi tabiiy hol. Bu holat demografik jarayonlarning rivojlanishiga muayyan darajada o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Mustaqillik yillarida aholi migratsiyasi manfiy tamonga o'zgardi. Rusiyzabon xalqlarining o'z yurtlariga ko'chib ketishi ham aholi o'sishiga va uning tarkibiga ta'sir etmoqda. Shuningdek, eski davr tuzumi bilan yangi demokratik jamiyatning boshqaruv siyosatidagi nomutanosibliklar aholi o'sish sur'atida ham namoyon bo'ladi. Hozirgi vaqtda farzandlarni tarbiyalash va voyaga yetkazishda miqdoriga emas, balki sifatiga, ya'ni sog'lom va ma'naviy yetukligiga e'tibor kuchaymoqda. Bu esa o'z-o'zidan mamlakat miqyosida sezilarli darajada aholi o'sishining sekinlashuviga olib keladi.

Viloyatlar aholisi o'sishini yilma-yil tahlil qiladigan bo'lsak, ma'lum darajada tafovutlar mavjudligining guvohi bo'lamiz. Masalan, 1992 yil respublika aholisi bir yilda 102,4 foizga o'sdi (495,9 ming kishiga). Bu ko'rsatkich mintaqalarda turlicha bo'lib, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax va Xorazm viloyatlari respublika ko'rsatkichidan yuqori. Toshkent shahri, Toshkent va Sirdaryo viloyatlarda aholi o'sish darajasi biroz pastroq.

1.1-jadval ma'lumotlarida aholi sonining o'sishi 1996-1997 yillargacha deyarli o'zgarmaganligini ko'rishimiz mumkin. Lekin keyingi davr mobaynida aholi birmuncha sekin o'smoqda. Jumladan, 2006 yilda respublikada aholi soni bir yilda 101,1 foizga o'sgan. Mintaqalarda ham bu jarayon ancha sust bo'lib, Toshkent, Sirdaryo va Navoiy viloyatlari respublika o'rtacha ko'rsatkichidan ancha

orqada. Toshkent shahrida esa 2000-2004 yilda aholi o'sishi manfiy tomonga o'zgargan..

1.1-jadval

O'zbekiston Respublikasi va viloyatlarining jami aholi soni

	2000	2001	2002	2003	2004	2005	2006	2006y 1991yil ga nisb.% xis.	o'rtacha yillik ko'payishi, %
O'zbekiston Resp.	24487,7	24813,1	25115,8	25427,8	25701,4	26021,4	26312,7	127,69	1,65
	101,4	101,3	101,2	101,2	101,1	101,2	101,1		
Qoraqalp. Resp.	1503,0	1527,0	1540,1	1551,6	1559,7	1569,7	1571,9	123,71	1,45
	101,6	101,6	100,8	100,7	100,5	100,7	100,1		
Andijon vil.	2186,2	2216,5	2247,4	2279,7	2310,1	2342,7	2375,9	132,80	1,90
	101,6	101,4	101,4	101,4	101,3	101,4	101,4		
Buxoro vil.	1419,3	1437,7	1456,1	1473,9	1488,6	1507,6	1525,9	127,68	1,65
	101,3	101,3	101,3	101,2	101,0	101,3	101,2		
Jizzax vil.	974,8	991,5	1005,7	1019,5	1031,0	1043,3	1051,4	132,71	1,90
	101,7	101,7	101,4	101,4	101,1	101,2	100,8		
Navoiy vil.	783,3	791,1	795,8	799,7	804,3	810,2	812,7	119,16	1,20
	101,0	100,9	100,6	100,5	100,6	100,7	100,3		
Namangan vil.	1924,3	1953,2	1982,7	2013,7	2041,2	2073,2	2103,6	135,55	2,05
	101,7	101,5	101,5	101,5	101,4	101,6	101,5		
Samarqand vil.	2670,3	2710,0	2749,8	2789,1	2824,9	2867,1	2907,5	132,10	1,90
	101,6	101,5	101,4	101,4	101,3	101,5	101,4		
Surxondaryo vil.	1736,7	1770,4	1801,0	1834,3	1864,0	1894,9	1925,1	144,52	2,45
	102,0	101,9	101,7	101,8	101,6	101,7	101,6		
Sirdaryo vil.	642,2	649,9	657,2	664,1	668,1	672,2	676,9	121,07	1,30
	101,0	101,2	101,1	101,0	100,7	100,5	100,7		
Toshkent vil.	2350,2	2370,2	2390,6	2411,8	2429,0	2452,9	2468,0	115,88	1,00
	101,0	100,8	100,8	100,9	100,7	100,9	100,6		
Farg'ona vil.	2664,4	2697,5	2729,8	2765,7	2798,6	2840,9	2878,9	129,99	1,75
	101,4	101,2	101,2	101,3	101,2	101,5	101,3		
Xorazm vil.	1323,9	1347,7	1369,3	1390,9	1410,5	1432,8	1453,9	136,39	2,10
	101,9	101,8	101,6	101,6	101,4	101,6	101,3		
Qashqadaryo vil.	2166,8	2212,5	2253,7	2294,7	2336,0	2378,5	2420,4	142,85	2,40
	102,2	102,1	101,8	101,8	101,8	101,8	101,8		

Toshkent sh.	2142,3	2137,9	2136,6	2139,1	2134,9	2135,6	2140,6	100,49	0,05
	99,9	99,8	99,9	100,2	99,8	100,0	100,2		

Ko'rinib turibdiki, respublikada aholining o'sish jarayoni biroz sekinlik bilan kechmoqda. Aholi soni yillar mobaynida turli sur'atlarda o'sib bordi, u 1992 yil 1991 yilga nisbatan 102,4 foizga o'sgan bo'lsa, 2005-2006 yillar oralig'ida bu ko'rsatgich 101,1 foizga teng bo'ldi. Demak, respublika aholisining o'sish darajasida davriy farqlar juda katta emas. Lekin biz bu jarayonning 15 yil davomidagi holatini kuzatadigan bo'lsak, aholi sonining birmuncha o'sganligini ko'rishimiz mumkin .

Viloyatlar aholisining o'rtacha bir yilda mutloq ko'payishini tahlil qilinganda, 1991 yildan boshlab raqamlarning pasayishi kuzatiladi. Mazkur yilda respublika aholisi 498,6 ming kishiga ko'paygan bo'lsa, 2005 yil u 291,1 ming kishini tashkil etdi yoki 207,5 ming kishiga kam o'sgan. Bunga, albatta, migratsiya jarayoni va tug'ilish darajasining pasayishi ta'sir etgan. Deyarli barcha viloyatlarda 1994 yil aholining o'rtacha mutloq ko'payishi keskin pasaygan. Masalan, 1991 yilda qashqadaryo viloyati aholisi 1694,4 ming kishini tashkil etgan holda, u 50,8 ming kishiga ko'paygan, xuddi shu yilda Farg'ona viloyati aholisi 2214,6 ming kishidan iborat bo'lib, 55,8 ming kishiga o'sgan. Binobarin, tug'ilish darajasining yuqoriligi aholi sonining tez o'sishiga sababchi bo'lgan.

Toshkent shahrida aholining tadrijiy o'sishi deyarli sezilmaydi, aksincha ayrim yillari uning kamayganligini ko'rishimiz mumkin. Bunga asosan tug'ilish darajasining pastligi va tashqi migratsiya ta'sir etgan.

Mintaqalar aholisining o'rtacha bir yillik mutloq ko'payishi turlichaligiga avvalgi yillardagi aholining yosh va jinsiy tarkibidagi nomuvofiqliklar, tarixiy demografik vaziyat, nikoh, tug'ilish, o'lim holatlarining farqlari, migratsiya, shuningdek, turli davrlardagi ijtimoiy-iqtisodiy imkoniyatlar ham sabab bo'lgan. Shuning uchun hududlarda qaysi bir yilda aholi soni tez ko'paygan bo'lsa, ikkinchi yili u sekin ko'paygan yoki, aksincha.

Shunday qilib, mamlakat aholisi o'sishida ma'lum hududiy tafovutlar mavjud bo'lib, mintaqalar tabiiy sharoiti va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga bog'liq holda birmuncha farq qiladi. Shu nuqtai nazardan respublika viloyatlari aholi sonining 1991-2006 yillarda o'sish sur'ati bo'yicha quyidagi uch guruhni ajratish mumkin:

1. Aholi soni o'sish darajasi yuqori bo'lgan viloyatlar: Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm va Namangan;

2. Aholi soni o'sish ko'rsatkichi o'rtacha bo'lgan mintaqalar: Qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Andijon, Samarqand, Farg'ona hamda Buxoro viloyatlari;

3. Aholi soni o'sish holati past bo'lgan hududiy birliklar: Toshkent shahri, Toshkent, Navoiy, Sirdaryo viloyatlari.

Mazkur yillar mobaynida viloyatlar shahar va qishloq aholisi o'sishi ham ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga mos ravishda turlicha tus oldi. Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, aholi o'sish darajasi shaharlarga nisbatan qishloqlarda yuqori bo'lib, bu deyarli barcha viloyatlar uchun xos bo'lgan jarayondir. Biroq ayrim mintaqalarda, masalan, qoraqalpog'iston Respublikasi, Jizzax, Surxondaryo viloyatlarida shahar aholisi qishloq aholisiga nisbatan biroz tez o'smoqda. Bu hududlardagi shaharlarning aksariyat ko'pchiligi qishloq tumanlari markazi bo'lib, aholisi o'sishida qishloqlarning ta'siri yaqqol seziladi. qolgan viloyatlarning shahar va qishloq aholisining o'sishida ma'lum darajasida farqlar mavjud. Chunonchi, Buxoro, Samarqand, Toshkent, Xorazm viloyatlarida qishloq aholisi o'sishi ancha yuqori. Mazkur mintaqalar hududlari vodiya va vohalarda joylashgan bo'lib, unumdor yerlarning ko'pligi, obikor dehqonchilikning rivojlanganligi aholisining asosiy qismi qishloqlarda joylashishiga sabab bo'lgan. Bu esa, o'z navbatida, qishloq aholisi o'sishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuningdek, yuqorida qayd etilgan viloyatlar shahar aholisi o'sishining pastligiga mahalliy millat vakillaridan tashqari rusiyzabon xalqlarining ko'pligi va "shaharcha" turmush tarzining keng tarqalganligi ham sabab bo'ladi.

Shahar va qishloq aholisining o'sishida doimo farq bo'lib kelgan. Bu ikki ijtimoiy-demografik tizimda, aholi turmush tarzining turlichaligi, ma'naviy dunyo qarashidagi farqlar, uy-joy, oziq-ovqat, ish bilan ta'minlash muammolari ham ma'lum darajada ushbu tafovutni belgilab beradi.

Qishloq xo'jaligining ba'zi tarmoqlari qo'l mehnatini ko'p talab qiladigan sohalaridan tashkil topgan va ularda ishchi kuchiga bo'lgan ehtiyojlar nisbatan katta. Aynan shu omillar ta'sirida ham qishloq aholisining o'sishi birmuncha yuqoridir.

Umuman olganda, respublika viloyatlari aholi soning o'sishi oldingi yillarga nisbatan sezilarli darajada sekin bormoqda. Aholi o'sishiga tabiiy, agroiklimiy sharoit ham qisman ta'sir ko'rsatadi; qulay iqlim sharoiti, unumli yerlar va suv resurslarining yetarliligi mavjud hududda aholi zich joylanishiga va uning o'sishini nisbatan yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi.

Yuqoridagilar asosida quyidagilarni ta'kidlash mumkin:

- mamlakatda demografik vaziyat aholi soni o'sishining qisqarishi tomon bormoqda;
- respublika qishloq aholi sonining o'sish sur'ati avvalgi yillarga nisbatan pasaygan;
- qishloq aholisining shahar aholisiga qaraganda tez o'sishi urbanizatsiya darajasining pasayishiga sabab bo'lmoqda;
- qishloq aholisining joylanishi asosan sug'oriladigan joylarda, yirik shaharlar hamda magistral yo'llar atrofida ancha zich ko'rinishga ega.

Qishloq joylarda demografik vaziyatning xususiyatlarini hisobga olish respublikada ijtimoiy muammolarni hal etish, mehnat resurslaridan samarali foydalanish hamda ilmiy asoslangan mintaqaviy siyosatni amalga oshirishda, qishloq aholi soni va uning tarkibini bashorat qilishda muhim ahamiyatga ega. Ayni vaqtda bozor munosabatlariga o'tish sharoitida oilalar o'z iqtisodiy ahvoliga ham e'tibor bera boshladi. Natijada u o'z imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, oila hajmini rejalashtiradigan bo'ldi. Bu esa oilada farzandlar sonining muayyan miqdorda o'zgarishiga olib keladi.

Keyingi yillarda atrof-muhit ifloslanishi va ma'lum darajada tabiiy muvozanatning buzilishi bilan bog'liq ayrim mintaqalar ekologik holatining keskinlashuvi demografik vaziyatni birmuncha o'zgarishiga olib kelmoqda. Jumladan, 1991-2006 yillarda Toshkent va Navoiy viloyatlarida aholi o'sishi, qolgan viloyatlarga nisbatan, biroz past. Navoiy viloyatining noqulay tabiiy sharoiti, ya'ni maydonining katta qismini cho'llar egallaganligi aholi o'sishi uchun imkoniyatlarni cheklaydi.

Ayni vaqtda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida aholining o'sish sur'ati ancha yuqori. Mazkur mintaqalarda urbanizatsiya jarayonining pastligi, mahalliy aholi o'rtasida urf-odat, an'ana va udumlarga o'zgacha e'tibor bilan qaralishi, ayollarning ijtimoiy hayotdagi faolsizligi va ma'naviy saviyasiga bog'liq holda demografik jarayonlar rivojlanmoqda.

Aholi sonining o'sishiga uning yosh tarkibi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mamlakat aholisi tarkibida qariyalarga nisbatan yoshlar salmog'ining yuqori bo'lishi aholi sonini tez o'sishiga olib keladi.

O'zbekiston aholisining yosh tarkibida 0-15 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 36,6 foizini, 16-59 yoshlilar 57,1 %, 60 va undan yuqori yoshdagilar 6,3 foizni egallaydi. Respublikada 0-2 yoshgacha bo'lganlar jami aholining 5,9 foizini tashkil etadi.

Toshkent shahri aholisi tarkibida 30-34, 35-39, 40-49, 50-59, 60 va undan yuqori bo'lgan yosh guruhlarning salmog'i yuqoriligi bilan mintaqalar ichida alohida ajralib turadi. Ayni chog'da tug'ilish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan Surxondaryo va qashqadaryo viloyatlarida aholi tarkibida 40-49, 50-59, 60 va undan yuqori bo'lgan yosh guruhlarning salmog'i jihatidan viloyatlar orasida eng past ko'rsatkichga ega. Mazkur viloyatlar aholisi tarkibida yoshlarning ulushi nisbatan katta.

Tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan hududlarda aholi tarkibida yoshlar salmog'i yuqori, aksincha tug'ilish ko'rsatkichi past bo'lgan mintaqalarda qariyalar miqdorining ko'p bo'lishi kuzatiladi. Bunday hududiy xususiyatlar, o'z navbatida,

aholini ijtimoiy muhofaza qilishni joylarda amalga oshirishda e'tiborga olinishi kerak.

Aholi migratsiyasi viloyatlararo ham kuzatiladi. Qo'riq va bo'z yerlarning o'zlashtirilishi mazkur hududlarda ishchi kuchiga va ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni rivojlantirish uchun malakali kadrlarga bo'lgan talabning yuqori bo'lishi tabiiy. Natijada, aholi zich yashaydigan mintaqalardan ushbu hududlarga aholi ko'chishi hollari kuzatiladi. Bunga yaqqol misol qilib Jizzax va Sirdaryo viloyatlarini keltirish mumkin. Aholi migratsiyasi shahar va qishloqlar o'rtasida ancha rivojlangan. Shahardan qishloqlarga kam holatlarda aholi ko'chadi. Biroq, qishloqdan shaharlarga aholining migratsiyasi doimo yuqori bo'lib kelgan, ya'ni yoshlarning oliy o'quv yurtlariga borib o'qishi va ishlab qolishi, shuningdek, ortiqcha mehnat resurslarining shahardan ish topishi ham ichki migratsiya sal'dosiga ta'sir qiladi. Ayni vaqtda aholining ko'chishi hududlar aholi tarkibining o'zgarishiga olib keladi.

Orol bo'yida noqulay ekologik vaziyat ushbu mintaqada aholi migratsiyasining vujudga kelishiga zamin yaratadi. Shu bilan birga, qishloq xo'jaligida foydalanadigan yerlarning yaroqsiz holatga kelishi, ya'ni kuchli darajada sho'rlanishi aholining qishloqlardan shaharlarga ko'chishiga sabab bo'lmoqda. Ayrim hollarda mintaqa aholisining boshqa viloyatlarga ham borib o'rnamishi kuzatiladi. Bu esa aholining hududiy tarkibidagi o'zgarishlarga olib keladi.

1.2 Respublika aholisining hududiy tarkibidagi o'zgarishlar

Respublika aholisining hududiy tarkibi tabiiy sharoit, tarixiy, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ko'ra turlichadir. Mintaqalarda aholining joylanish salmog'i bir-biridan ancha farq qiladi. Aholi azaldan sug'orma dehqonchilik rivojlangan voha va vodiylarda, yirik shaharlar atrofida, shuningdek magistral yo'llariga yaqin joylarda birmuncha zich yashab kelgan.

Hozirgi kunda bunga qo'shimcha ravishda mineral resurslarning topilishi va ulardan foydalanish natijasida sanoat shaharlarining vujudga kelishi, yangi yerlarning o'zlashtirilishi, gidrografik shaxobchalarning ko'payishi asosida aholi manzilgohlarining paydo bo'lishi ham aholi joylanishiga ta'sir etuvchi muhim omillardan sanaladi.

Quyidagi 1.2-jadval ma'lumotlari shuni ko'rsatadiki, mamlakat hududida aholining joylanishi bir xil emas. Masalan, 1991 yilda Samarqand viloyati aholisi mamlakat aholisining 10,6 foizini tashkil etgan bo'lsa, Farg'ona viloyatining ko'rsatkichi 10,8 foizga teng bo'lgan. Biroq, 2003 yilga kelib Samarqand viloyatining ulushi 11.0 % va Farg'ona viloyatiniki esa 10,9 foizga o'zgargan.

1.2-jadval

**O'zbekiston Respublikasi aholisining hududiy tarkibidagi o'zgarishlar
(% hisobida)**

T/r.		1991	1995	2000	2006
	O'z. Resp.	100,0	100,0	100,0	100,0
	qoraq.Resp.	6,2	6,2	6,2	6,0
	Toshkent sh.	10,1	9,1	8,6	8,1
	viloyatlar:				
1	Andijon	8,7	8,9	8,9	9,0
2	Buxoro	5,8	5,8	5,8	5,8
3	Jizzax	3,9	3,9	4,0	4,0
4	Navoiy	3,3	3,2	3,2	3,1
5	Namangan	7,6	7,8	7,9	8,0
6	Samarqand	10,7	10,8	10,9	11,0
7.	Surxondaryo	6,5	6,9	7,1	7,3
8	Sirdaryo	2,7	2,7	2,6	2,6
9	Toshkent	10,2	9,8	9,5	9,4
10	Farg'ona	10,7	10,8	10,9	10,9
11	Xorazm	5,2	5,3	5,4	5,5
12	qashqadaryo	8,3	8,6	8,9	9,2

1991 yildan 1998 yilgacha Farg'ona viloyati respublikada aholisi sonining ko'pligi bo'yicha birinchi o'rinda turardi, 1998 yildan boshlab esa bu o'ringa Samarqand viloyati chiqib oldi. Hozirda bu ikkala viloyat hududida O'zbekiston aholisining 21,9 foizi istiqomat qiladi.

Sirdaryo va Jizzax viloyatlari aholisi respublika aholisining nisbatan oz qismini tashkil qiladi. Ushbu hududlarga aholi asosan 70-yillarda Mirzacho'lning o'zlashtirilishi natijasida ko'chib kela boshlaganidan so'ng ularning demografik salohiyati orta bordi. Ayni paytda tabiiy sharoiti noqulay, maydonining katta qismi cho'llardan iborat bo'lgan Navoiy viloyatida mamlakat aholisining 3,1 foizi yashasa, maydoni eng kichik bo'lgan Andijon viloyati O'zbekiston aholisining 9,0 foizini o'zida mujassamlashtiradi.

Aholi joylanish ulushining 1991-2005 yillarda mintaqalar bo'yicha o'zgarib turganligini avvalambor tug'ilish darajasining turlicha bo'lganligiga bog'liq. Chunki, tug'ilish ko'rsatkichi yuqori bo'lgan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida 1991 yil respublika aholisining 6,5 va 8,3 foizi yashagan bo'lsa, 2005 yilga kelib esa bu yerda 7,3 va 9,2 % aholi yashamoqda. Mazkur yillardagi farq 0,8 va 0,9 punktga oshgan. Tug'ilish darajasi past bo'lgan Toshkent shahri va Toshkent viloyatida bu holat 10,1 va 10,2 foizdan, 8,1 va 9,4 foizga o'zgargan yoki 2,0 –1,1 punktga kamaygan. Ayni vaqtda, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro va Sirdaryo viloyatlarida ko'rilayotgan yillarda aholining joylanish salmog'i deyarli o'zgarmagan.

Bundan ko'rinib turibdiki, Samarqand, Farg'ona, Toshkent va Andijon viloyatlarida respublika aholisining 40,3 foizi mujassamlashgan. Mazkur hududlarda tabiiy sharoitning qulayligi, agroiqlimiy resurslarining mavjudligi bilan bir qatorda ko'plab sanoat korxonalari joylashganligi va ijtimoiy infrastruktura tizimi ham yaxshi rivojlanganligi aholining joylanish salmog'iga ta'sir etadigan asosiy omil bo'lib xizmat qiladi.

Hozirgi davrda o'zining demografik salohiyatiga ko'ra Samarqand viloyati birinchi, Farg'ona-ikkinchi va Toshkent viloyati-uchinchi o'rinda turadi. Aholi salmog'i jihatidan eng past ko'rsatkich Navoiy va Sirdaryo viloyatlarida kuzatiladi.

Mamlakatda aholi joylashuvining o'rtacha zichligi 1 kv. km ga 58,6 kishidan iborat. Viloyatlar bo'yicha aholi zichligini tahlil qiladigan bo'lsak, Farg'ona vodiysida aholining nihoyatda zich joylashganligini ko'rish mumkin. Azaldan sug'orma dehqonchilik rivojlangan vodiy respublika hududining 4,1 foizini tashkil etgani holda, bu yerda mamlakat aholisining 27,9 foizdan ko'prog'i mujassamlashgan. Vaholanki, O'zbekiston hududini 61,9 foizini egallagan Qoraqalpog'iston Respublikasi va Navoiy viloyatlarida respublika aholisining atigi 9,1% yashaydi, xolos.

Andijon viloyati respublikada aholi zichligi bo'yicha yetakchi o'rinda turadi— 565,7 kishi. Navoiy viloyatida esa aholi nihoyatda siyrak joylashgan 1 kv. km ga 7,3 kishi. Ayni vaqtda har bir viloyat aholisining joylashuvida ham ichki tafovutlar mavjud. Shahar aglomeratsiyalariga yaqin joylarda, aholi magistral yo'llari bo'ylab, daryo vodiysi va soylar atrofida, gidrografik shahobchalar va ijtimoiy infrastruktura tizimining rivojlanish imkoniyatlariga mos ravishda joylashadi. Masalan, Namangan viloyatida aholining joylashuvi o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, aholi soylarning yaqin atrofida lentasimon tarzda ancha zich joylashadi, suv bormaydigan, sug'orish tizimi bo'lmagan hududlarda aholi juda kam, ayrim hollarda umuman yashamaydi. Qashqadaryo, Jizzax va Sirdaryo viloyatlarida esa cho'lni o'zlashtirish evaziga kanallar va sug'orish inshootlarining qurilishi ta'sirida aholi «o'choq» usulida, ya'ni to'p-to'p bo'lib joylashadi.

Navoiy viloyatida urbanizatsiya darajasining nisbatan yuqori bo'lishiga tabiiy omil sabab bo'ladi. Tabiiy sharoiti noqulay, maydonining katta qismi cho'llardan iborat bo'lgan mazkur viloyatda aholi asosan shaharlar atrofida, transport tugunlarida va mineral resurslarni qazib olish va uni qayta ishlash hisobida vujudga kelgan aholi punktlarida birmuncha zichroq yashaydi. Qolgan hududlarda aholi nihoyatda siyrak joylashadi.

Aholi sonining o'sishi uning milliy tarkibiga ham bevosita bog'liq. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligining vujudga kelishi bilan undagi har bir respublika o'z ma'muriy chegaralariga, qonun va konstitutsiya, shuningdek, o'ziga xos ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ega bo'lishi ma'lum darajada mazkur suveren davlatlarda rusiyzabon xalqlarining migratsiyasiga sabab bo'ldi. Ushbu jarayon 90-yillar boshlarida biroz jadallashib, hozirgi vaqtda ancha mo'tadillashganligini ko'rish mumkin.

Mazkur davr mobaynida qoraqalpoq, qozoq, qirg'iz, turkman millatiga mansub aholining respublikadagi salmog'i deyarli o'zgarmagan. O'zbekistonning ayrim hududlarida ushbu millat vakillari qadimdan o'troq holda yashab kelishgan. Ularga xos bo'lgan aholining takror barpo etish ko'rsatkichlari asosiy millat vakillari, ya'ni o'zbeklardan katta farq qilmaydi. Binobarin, mazkur millatlarning salmog'i deyarli o'zgarmagan.

Respublika viloyatlarining joylashgan o'rni, ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlarining turlichaligi ularda aholi milliy tarkibining ham xilma-xil bo'lishiga sabab bo'lgan. Jumladan, qo'shni davlatlar bilan chegaraga yaqin hududlarda mazkur davlatlar uchun xos bo'lgan millatlar ulushining ko'pligini ko'rishimiz mumkin. Rusiyzabon xalqlari, odatda, sanoat shaharlarida, shuningdek yirik shaharlar atrofida birmuncha ko'proq o'rnashadi.

Bundan ko'rinib turibdiki, O'zbekiston aholisining milliy tarkibida qo'shni respublikalar uchun xos bo'lgan millat vakillarining salmog'i rusiyzabon xalqlariga qaraganda biroz yuqoriroq. Ayrim hollarda ushbu holatning vujudga kelishiga mintaqalarning tarixiy taraqqiyot davrlari, ya'ni mazkur hududlarda yagona davlat boshqaruvining mavjudligi va keyinchalik bo'linib ketganligi ham sabab bo'lgan.

Shunday qilib yuqoridagilardan xulosa chiqarish mumkinki, mustaqillik yillarida respublika aholisining o'sish sur'atini birmuncha pasayishi bilan bir qatorda, aholining hududiy va milliy tarkibida ham qisman o'zgarishlar kuzatiladi. Bunday geodemografik o'zgarishlar turli omillarga bog'liq bo'lib, ularni o'rganish katta ilmiy va amaliy ahamiyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi aholisi milliy tarkibining o'zgarishi

Millatlar	1979 yil		1989 yil		2005 yil	
	Aholi soni, ming kishi	Jamiga nisbatan foizda (%)	Aholi soni, ming kishi	Jamiga nisbatan foizda (%)	Aholi soni, ming kishi	Jamiga nisbatan foizda (%)
Jami aholi	15389,3	100,0	19810,1	100,0	26021,4	100,0
o'zbeklar	10569,0	68,7	14142,5	71,4	20820,3	80,0
qoraqalpoqlar	297,8	1,9	411,9	2,1	567,1	2,2
ruslar	1665,7	10,8	1653,5	8,3	983,6	3,8
ukrainlar	113,8	0,7	153,2	0,8	91,4	0,3
qozoqlar	620,1	4,0	808,2	4,1	937,0	3,6
ozarbayjonlar	59,8	0,4	44,4	0,2	40,6	0,1
qirg'izlar	142,2	0,9	174,9	0,9	232,2	0,9
tojiklar	594,6	3,9	933,6	4,7	1271,4	4,9
turkmanlar	92,3	0,6	121,6	0,6	156,5	0,6
tatarlar	531,2	3,5	467,8	2,4	252,6	1,0
koreyslar	163,1	1,1	183,1	0,9	157,3	0,6
boshqa millatlar	539,8	3,5	715,4	3,6	510,8	2,0

1.3 Aholi tabiiy harakatining geografik jihatlari

Ma'lumki, aholining uchta muhim funksiyasi bor: birinchidan u asosiy ishlab chiqarish kuchi hisoblanadi, ikkinchidan, aholi ayni vaqtda o'zi yaratgan moddiy va ma'naviy boyliklarni iste'molchisidir, uchinchi esa u o'z-o'zini takror barpo etish xususiyatiga ega. Aholining aynan shu uchinchi xususiyati, ya'ni uning takror barpo bo'lishini tadqiq etish bevosita demografiya fanining vazifasidir. Uning, aniqrog'i, aholi tabiiy harakatining hududiy jihatlari yoki tafovutlarini o'rganish esa ayni vaqtda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fanining muhim tarmog'i bo'lgan aholi geografiyasining tadqiqot ob'ektlaridan biridir.

Demografik jarayonlarni demografiya va aholi geografiyasi qirrasida o'rganishda ikki xil yondashuv mavjud: demogeografiya va geodemografiya umuman olganda, ular orasida, tizim-tarkib nuqtai nazardan qaraganda, jiddiy farq yo'q. Faqat birinchisiga bevosita demografik jarayonlar asos qilib olinadi va ularning hududiy jihatlari e'tibor qaratiladi; ikkinchisida esa geografiya, ya'ni hudud asos bo'lib xizmat qiladi va tadqiqotlarda undagi demografik jarayonlar o'rganiladi. Demak, yuqoridagi yo'nalishlarni bir-biriga qarshi qo'ymagan holda demograflarning hududiy fikrlashini demogeografiya, geograflarning demografik yondashuvini esa geodemografiya, deb atash mumkin. 1991 yil respublikada tabiiy ko'payish ko'rsatkichi har ming aholiga 28,3 promilleni tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilga kelib u 14,9 promillega teng bo'ldi. Bu davr mobaynida tabiiy ko'payish 13,4 promillega kamaygan. Ushbu holat tabiiy ko'payish darajasi doimo yuqori bo'lib kelgan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari uchun ham xos. 2003 yilda respublika va uning barcha viloyatlarida tabiiy ko'payish ko'rsatkichi pasayib ketgan. Birgina Toshkent shahrida bu holatning aksi kuzatilib, tabiiy ko'payish darajasi 101,6 foizni tashkil etdi. 2004 yilda esa tabiiy ko'payish koeffitsiyenti doimo yuqori bo'lib kelgan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida ushbu jarayon biroz sustroq kechgan.

Umuman olganda, 2004 yilda 2003 yilga qaraganda tug'ilish darajasining biroz bo'lsada oshganligi va o'lim holatlarining nisbatan kamayganligini, binobarin, demografik vaziyatning birmuncha yaxshilanganligini ko'rish mumkin. Ammo 2005 yilda respublika va uning barcha mintaqalarida tabiiy ko'payish

darajasi pasaygan. Bunga, albatta, oldingi yilga nisbatan tug'ilish ko'rsatkichining kamayganligi va o'lim holatlarining oshganligi sabab bo'lgan. Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida respublikada vujudga kelgan ijtimoiy-iqtisodiy muammolar ma'lum darajada tug'ilish darajasining pasayishiga sabab bo'ldi. Tug'ilish umumiy ko'rsatkichining pasayishiga go'daklar o'limi, ayollarning mehnat faoliyati, uy-joy va bolalar muassasalari bilan ta'minlanganlik darajasi, ekologik omil va boshqalar o'z ta'sirini ko'rsatmoqda.

O'rganishlar shuni ko'rsatadiki, 1991-2005 yillar oralig'ida tug'ilish koeffitsiyenti muntazam tushib ketgan. Mazkur yillarda respublikada tug'ilish 14,2 promillega kamaygan, ya'ni 34,5 promilledan 20,3 promillega tushib qolgan. Shu o'rinda ta'kidlab o'tish joizki, tug'ilish darajasi doimo yuqori bo'lib kelgan, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida mazkur ko'rsatkichning tushish «tezligi» birmuncha yuqori. Biroq, bunday kamayishga qaramasdan, mazkur mintaqalar tug'ilish ko'rsatkichining kattaligi bilan respublikada oldingi o'rinlarni egallab kelmoqda. Tug'ilishning sezilarli darajada kamayishi Namangan va Samarqand viloyatlari hamda Qoraqalpog'iston Respublikasida ham kuzatiladi.

Toshkent shahrida tug'ilish koeffitsiyentining past ko'rsatkichga ega bo'lishi bilan bir paytda ushbu ko'rsatkichning qisqarish tezligi ham ancha sekinlik bilan bormoqda. Ayni vaqtda Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida mazkur yillarda tug'ilishning tushish tezligi o'rtacha yiliga 1,45 va 1,31 ga teng. Bu yerda tug'ilish darajasi yuqori bo'lishidan qat'iy nazar, uning kamayish sur'ati boshqa viloyatlarga nisbatan ildamroqligini ko'rish mumkin.

Respublikamizda aholining takror barpo bo'lishidagi «yangiliklar» Toshkent shahri va Toshkent viloyatidan boshlanib, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida tugaydi. Bu holatda Toshkent viloyatidan 6-7 yil, Toshkent shahridan esa 15-20 yil orqada qolmoqda. Masalan, Surxondaryo viloyatining hozirgi tug'ilish ko'rsatkichi taxminan Toshkent viloyatining 1995 yildagi holatiga to'g'ri keladi.

Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlari tug'ilish darajasi bo'yicha hamon respublikada yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Mazkur mintaqalarda

urbanizatsiya jarayonining pastligi, aholisining asosiy qismi qishloqlarda istiqomat qilishi, shaharlarning aksariyat ko'pchiligi qishloq tumanlari markazi sifatida vujudga kelganligi, aholining milliy tarkibida mahalliy xalq ko'pchilikni tashkil etishi, milliy udum va an'analarning ba'zi bir jihatlariga shu mintaqalarda e'tiborning kuchliligi va xokazolar tug'ilish ko'rsatkichining nisbatan yuqoriligiga sabab bo'ladi.

Aholi tabiiy ko'payishi o'lim darajasiga ham bog'liq. Bu borada mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, demografik vaziyati va ekologik holatiga bog'liq ravishda ma'lum darajada tafovutlar mavjud. Masalan, ekologik vaziyatga mos holda olib qaraydigan bo'lsak, Orol dengizining qurib borayotganligi uning atrofida yashash aholi salomatligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi bir necha yillar davomida saqlanib kelinmoqda. Bu hududda tabiat muvozanati sezilarli darajada o'zgargan. Shuningdek, yirik shaharlar va sanoat markazlarida ham ekologik ahvolning yomonligini kuzatish mumkin. Aholi yashash sharoitidagi shunga o'xshash noqulayliklar va toza ichimlik suvi bilan to'liq ta'minlanmaganlik ham ma'lum darajada o'lim holatlarining ko'payishiga olib keladi. Bu asosan cho'l va tog' oldi hududlari uchun xos.

So'nggi yillarda O'zbekistonda o'lim darajasining birmuncha pasayganligini ko'rishmumkin. Jumladan, respublikada 1991 yil o'lim koeffitsiyenti 6,2 promilleni tashkil etgan bo'lsa, 2005 yilda esa bu ko'rsatkich 5,4 promillega tushib qoldi.

Ushbu jarayon viloyatlar darajasida ko'rib chiqilganda, mazkur yillarda Toshkent viloyatida o'lim koeffitsiyentining biroz ko'paygan. Biroq, Toshkent shahrida bu ko'rsatkich qisman o'zgargan holda, u biroz ko'paygan. Shuningdek, ekologik vaziyatga bog'liq ravishda horaqalpog'iston Respublikasida ham o'lim ko'rsatkichi balandroq.

Ayni chog'da tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida o'lim ko'rsatkichlari, boshqa mintaqalarga nisbatan, yillar davomida ancha past. Xuddi shu holat, ya'ni o'lim darajasining pastligi mazkur hududlarda aholi tabiiy ko'payshining yuqori bo'lishiga olib keladi. Toshkent shahrida o'lim

koeffitsiyenti birmuncha yuqori. Bunga aholining yosh va milliy tarkibi, migratsiyasi, urbanizatsiyalashgan ijtimoiy muhit, transport va ekologik holatlar o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Yuqorida keltirilgan fikrlar Toshkent viloyatiga ham qisman tegishli, chunki viloyat poytaxtni bevosita o'rab turadi va, shubhasiz, u poytaxt demografik vaziyatining ta'sirida bo'ladi.

Shunday qilib, aholi tabiiy harakatining hududiy xususiyatlarini o'rganish asosida respublika viloyatlarini quyidagi guruhlariga ajratishimiz mumkin:

Tug'ilish darajasi bo'yicha:

- Tug'ilish koeffitsiyenti yuqori bo'lgan viloyatlar: Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand;

- Tug'ilish ko'rsatkichi o'rtacha mintaqalar: Xorazm, Namangan, Farg'ona, Sirdaryo, Andijon viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi;

- Tug'ilish darajasi past hududlar: Toshkent shahri, Buxoro, Toshkent, Navoiy viloyatlari.

O'lim darjasiga ko'ra:

- O'lim koeffitsiyenti yuqori bo'lgan mintaqalar: Toshkent shahri va viloyati, Qoraqalpog'iston Respublikasi;

- O'lim ko'rsatkichi o'rtacha viloyatlar: Sirdaryo, Navoiy, Andijon, Farg'ona, Xorazm, Samarqand;

- O'lim holati past hududlar: Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Buxoro, Namangan viloyatlari.

Tabiiy ko'payish darajasi bo'yicha viloyatlarni guruhlash tug'ilish ko'rsatkichlari asosida guruhlashni takrorlaydi. Demak, hozirgi vaqtda respublikamizda aholi tabiiy ko'payishini asosan tug'ilish jarayoni belgilaydi.

Bu borada shahar aholisi tarkibida turli millatlarning ko'pligi, ayollarning ijtimoiy hayotda faolligi, ma'lumotlik darajasining yuqoriligi yoshlarning nisbatan kechroq nikohga kirishi, shaharcha yashash tarzi tug'ilish darajasining biroz pastligiga olib keladi.

Shahar aholisi tug'ilish koeffitsiyentining yuqoriligi bilan Namangan viloyati oldingi o'rinni egallab kelgan, biroq 2004 yilga kelib vaziyat biroz o'zgardi. Faqatgina mazkur viloyatda shahar aholisi tug'ilish ko'rsatkichining kamayganligini ko'rish mumkin. holgan barcha mintaqalarda esa shahar aholisi tug'ilish darajasi birmuncha o'sdi. Qoraqalpog'iston Respublikasi bu jihatdan yetakchi hisoblanib, tug'ilish koeffitsiyenti 21,5 promilleni tashkil etgan. Ushbu hududdagi shaharlar qishloq tumanlari markazi bo'lganligi sababli shahar va qishloq aholisi tug'ilish jarayonidagi farqlar deyarli sezilmaydi.

So'nggi yillarda shahar aholisi tug'ilish holatining pastligi bo'yicha Buxoro viloyati alohida ajralib turadi. Hattoki doimo bu jihatdan past natijaga ega bo'lgan Toshkent shahridan ham bu ko'rsatkich past. So'nggi yillarda, ayniqsa 2000 yildan keyingi davrda shahar aholisi tug'ilish koeffitsiyentidagi hududiy tafovutlar qisqarib bormoqda.

Respublika aholisining asosiy qismi qishloqlarda yashaganligi sababli uning demografik vaziyatiga qishloq joylarining ta'siri katta. Qishloq joylarda tug'ilish oldingi yillarga nisbatan biroz kamaymoqda. Ayni vaqtda hududiy tafovut ko'rsatkichi ham o'zgarib borgan. Masalan, u 1989 yilda 1,31 ga teng bo'lgan bo'lsa, 1996 yilda 1,70 gacha ko'tarilgan va undan so'ng muntazam pasayib borib, 2004 yilda 1,15 ni tashkil etgan. Demak, bundan xulosa chiqaradigan bo'lsak, shahar va qishloq aholisi tug'ilish ko'rsatkichining pasayib borishi qishloq aholisida tezlashganligini bilish mumkin. Tug'ilish ko'rsatkichlaridagi hududiy tafovut respublika qishloq tumanlari miqyosida yanada yaqqolroq ko'zga tashlanadi.

Shahar va qishloq aholisining tug'ilish darajasidagi tafovutlar singari o'lim ko'rsatkichlarida ham ma'lum farqlanishlar mavjud. 1992 yilda respublika shahar aholisining o'lim koeffitsiyenti 7,0 promilleni tashkil etgani holda, 2004 yilda u 6,1 promilledan iborat bo'ldi. Mazkur yillar mobaynida Toshkent shahri va viloyati o'lim darajasining yuqoriligi bilan qolgan viloyatlardan keskin farq qiladi. Shuningdek, Sirdaryo viloyati shahar aholisining ham o'lim koeffitsiyenti respublika ko'rsatkichidan yuqori.

Keyingi yillarda mamlakat shahar aholisining o'lim ko'rsatkichi kamayganligini ko'rish mumkin. Ayniqsa Jizzax, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida bu jarayon ancha past. Biroq, ularda tug'ilish darajasining yuqoriligi tabiiy ko'payish koeffitsiyentining yoki «aholi takror barpo bo'lish samaradorligining» yuqori bo'lishiga olib keladi. Qishloq aholisida umumiy o'lim ko'rsatkichi 1992 yilda 6,2 promilleni tashkil etgan holda, 2004 yilda u 4,4 promilledan iborat bo'ldi. Bu davrdagi tafovut har ming kishiga 1,8 punktga qisqargan bo'lib, shaharlardagiga nisbatan u ikki barobarga pasaygan.

O'lim darajasi Navoiy, Namangan, Samarqand va Farg'ona viloyatlarida respublika ko'rsatkichidan ko'pchilik holatlarda yuqoriligi bilan ajralib turadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi bu jihatdan alohida ahamiyat kasb etib, ekologik vaziyatga bog'liq holda mazkur jarayon sodir bo'ladi. Umuman olganda, qishloq joylarda aholi o'limi oldingi yillarga nisbatan kamaygan..

Ta'kidlash lozimki, O'zbekistonda onalar va bolalar salomatligiga alohida e'tibor berilishi, ko'plab imtiyozlarning qabul qilinishi ko'pchilik hollarda go'daklar o'limining pasayishiga olib keladi. Shuningdek, oilalarda farzandlar sonining kam bo'lishi, ya'ni tug'ilish darajasining pasayishi ham umumiy o'lim ko'rsatkichining qisqarishiga sabab bo'ladi.

Aholining tabiiy harakati, xususan bizning sharoitimizda uning asosiy qismi-tug'ilish boshqa demografik omillarga, jumladan aholining milliy tarkibiga ham bog'liq.

Turli millat vakillarida tug'ilish darajasining har xil bo'lishi ma'lum holatda ularning qaysi sohalarida bandligi va o'z milliy udum – an'analariga hamda qaysi joylarda yashashlariga bog'liq. Jumladan, ko'pgina rusiyzabon millat vakillari asosan shaharlarda istiqomat qilishadi. Ayni vaqtda ularda tug'ilish ko'rsatkichlari qishloq joylarda yashovchilarga qaraganda ancha past. Shu o'rinda ta'kidlash joizki, shaharlarda yashovchi millat vakillarining ko'p qavatli uylar yoki hovlilarda turishligi ham ulardagi tug'ilish darajasining farq qilishiga olib keladi.

Respublika aholisi milliy tarkibining o'zgarishi tug'ilishning umumiy darajasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Gap shundaki, ushbu ko'rsatkich mamlakat

yoki mintaqa jami aholisiga nisbatan hisoblab chiqiladi. Vaholanki, amalda turli millat vakillarida tabiiy harakat natijalari bir xil emas. Shuning uchun tug'ilish va tabiiy ko'payishning real holatini baholash va demografik jarayonlarni bashorat etishda alohida millatlar darajasida maxsus ko'rsatkichlarni aniqlash talab etiladi .

1.4-jadval

**O'zbekiston Respublikasida turli millat vakillarining tabiiy harakati,
(har ming kishi hisobida)**

Millatlar	Tug'ilish	O'lim	Tabiiy ko'payish
respublika bo'yicha	20,9	5,0	15,9
o'zbeklar	22,4	6,4	16,0
qoraqalpoqlar	25,2	5,4	19,8
ruslar	6,2	12,8	-6,6
ukrainlar	0,4	0,4	0
qozoqlar	20,4	4,9	15,5
ozarbayjonlar	9,5	3,9	5,6
qirg'izlar	16,9	4,0	12,9
tojiklar	17,3	3,6	12,9
turkmanlar	18,2	4,7	13,5
tatarlar	12,7	17,2	-4,5
armanlar	6,2	9,1	-2,9
koreyslar	8,6	9,8	-1,2

Nikoh va ajralish aholi takror barpo bo'lishiga bevosita ta'sir etuvchi jarayonlardan hisoblanadi. Aholining nikohda turishi tug'ilish ko'rsatkichining sezilarli darajada o'zgarishiga olib kelib, uning past yoki yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi. 8-ilova tahlili shuni ko'rsatadiki, nikohlar soni yil sayin sekinlik bilan kamayib kelmoqda. Bu esa o'z-o'zidan tug'ilish holatlarining kamayishiga olib keladi. Mazkur jarayonni viloyatlar miqyosida ko'rib chiqadigan bo'lsak, ma'lum darajada tafovutlar mavjudligining guvohi bo'lamiz. Chunonchi, ko'rilyotgan

davrda (1996-2004 yy.) respublika ko'rsatkichidan Buxoro, Navoiy va Xorazm viloyatlari nikoh holatlarining yuqoriligi bilan alohida ajralib turadi. So'nggi yillarda Toshkent shahri ham bu jihatdan oldingi o'rinlarga chiqib bormoqda. Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida esa nikoh ko'rsatkichlari birmuncha past.

Mamlakat bo'yicha ajralish jarayoni anchagina kamaygan. Ammo, Navoiy viloyati va Toshkent shahrida nikoh ko'rsatkichi yuqori bo'lishi bilan birgalikda ajralish holatlari ham ko'p. Ushbu jarayonni tug'ilish darajasiga bevosita bog'laydigan bo'lsak, tug'ilish koeffitsiyenti nisbatan past bo'lgan Toshkent shahri va viloyati, Navoiy viloyatlarida ajralish holatlari ko'p uchrashini qayd etish mumkin. Ayni vaqtda tug'ilish ko'rsatkichi doimo yuqori bo'lib kelgan Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida ajralish holatlari viloyatlar ichida eng past ko'rsatkichga ega .

Nikoh va ajralish mintaqalarda aholining milliy tarkibiga bevosita bog'liq. Rusiyazon xalqlarining Toshkent shahri, Toshkent va Navoiy viloyatlarida nisbatan ko'proq yashaganligi ajralishlar sonining yuqori bo'lishiga olib kelgan. Aksincha, Surxondaryo va Qashqadaryo viloyatlarida mahalliy xalq ulushining kattaligi milliy qadriyatlarga e'tiborning kuchliligi ajralishlarning kamligiga sabab bo'ladi.

Tug'ilish darajasining kamayib borishiga reproduktiv yoshning yosharishi ham ta'sir ko'rsatmoqda. Jumladan, agar o'tgan asrning 80 yillarigacha tug'ilish ko'rsatkichi bo'yicha 25-29 yoshdagi ayollar oldinda turgan bo'lsa, keyinchalik bu o'ringa 20-24 yoshdagilar chiqib oldi. Bir vaqtlar 45-49 yoshdagi ayollarning farzand ko'rish holatlari 15-19 yoshdagilardan ko'p yoki teng bo'lgan bo'lsa, hozirgi kunda aksincha vaziyat yuzaga kelmoqda.

Tug'ilish holatlarining eng yuqori darajasi 20-24 yoshdagi ayollarga to'g'ri keladi. 1991 yilda 20-24 yoshdagi ayollarning farzand ko'rish holati 30-34 va undan yuqori bo'lgan yoshdagilardan 1,2 marta kam bo'lgan bo'lsa. 2005 yilda xuddi shu jarayon 1,3 martaga qisqargan. Bundan ko'rinib turibdiki, keyingi yillarda reproduktiv yosh ancha yoshargan.

Ayni paytda 15-19 yoshdagi ayollarda tug'ilish holatlarining yuqoriligi bo'yicha Xorazm va Namangan viloyatlari yetakchi hisoblanadi. Demak, mazkur mintaqalarda qizlarning erta turmushga chiqish holatlari ko'proq kuzatiladi.

1.5-jadval

O'zbekistonda tug'ilishning yoshlar bo'yicha taqsimlanishi

Yil-lar	Yosh tartibiga ko'ra har mingta ayolga nisbatan tirik tug'ilganlar							
	15-19	20-24	25-29	30-34	35-39	40-44	45-49	15-49
1991	48,17	302,91	243,77	155,03	67,76	19,29	2,63	152,14
1992	56,75	301,73	228,56	137,77	58,25	15,41	2,14	141,55
1993	68,11	292,11	209,78	123,71	51,16	13,28	1,59	133,83
1994	64,84	283,26	194,09	109,26	44,19	10,29	1,25	123,27
1995	59,21	285,82	211,46	108,99	42,42	9,98	1,26	123,23
1996	56,74	263,54	191,90	100,28	38,94	8,97	1,04	111,97
1997	49,19	252,49	179,71	91,93	34,50	7,51	0,96	103,19
1998	27,53	228,17	170,50	92,76	34,73	8,33	0,82	92,05
1999	24,05	214,69	172,49	92,91	31,72	7,15	0,80	87,90
2000	21,06	205,37	161,38	89,73	31,46	7,02	0,69	82,68
2001	17,27	197,21	155,08	86,27	30,21	6,81	0,68	78,10
2002	15,05	193,63	167,0	87,56	31,78	7,35	0,55	78,86
2003	12,40	179,30	157,54	84,39	30,81	6,22	0,57	73,39
2004	9,48	184,50	166,48	89,38	33,96	6,45	0,59	76,18
2005	9,09	173,38	163,13	85,94	34,36	5,71	0,56	73,57
1991-2005 yy.qisqartirish ma	5,3	1,7	1,5	1,8	1,9	3,4	4,7	2,1

20-24 yoshdagi ayollarda tug'ilish darajasining yuqoriligi bilan Samarqand viloyati oldingi o'rinni egallagan bo'lsa, eng past ko'rsatkich Toshkent shahriga to'g'ri keladi. Qolgan barcha yoshdagi ayollarda tug'ilish koeffitsiyentining

yuqoriligi bilan Surxondaryo, Qashqadaryo va Jizzax viloyatlari yetakchi o'rinlarni egalaydi.

Tug'ilish darajasi doim yuqori bo'lib kelgan Surxondaryo va bu jarayon nisbatan past bo'lgan Toshkent viloyatlarida tug'ilish holatini reproduktiv yoshdagi ayollar bo'yicha taqqoslaydigan bo'lsak, oradagi farq 20-24 yoshdagi ayollarda 1,1 marta, 25-29 yoshda 1,2 marta, 30-34 yoshda-1,5, 35-39 yoshda-1,7, 40-44 yoshda-1,9 va 45-49 yoshda 4,6 martaga teng. Bundan ko'rinib turibdiki, mazkur viloyatlarda reproduktiv yoshning oshib borishi bilan tug'ilish darajasidagi tafovut ham ortib bormoqda.

1.6-jadval

O'zbekistonda tug'ilgan bolalarning ketma-ketligi (foizda)

Yillar	Birinci	Ikkinchi	Uchinchi	To'rtinchi	Beshinchi va yuqori
1960	19,0	18,2	17,6	16,2	29,0
1965	12,8	13,4	15,8	17,0	41,0
1970	19,6	15,1	11,4	11,1	42,8
1975	23,1	18,4	13,8	10,6	34,1
1980	27,1	21,6	15,1	11,1	25,1
1985	26,8	23,8	17,8	11,6	20,0
1989	28,2	25,7	18,8	12,0	15,3
1996	32,9	31,9	17,7	10,1	7,4
1997	33,2	30,8	19,4	10,0	6,6
1998	34,1	29,0	21,2	10,0	5,7
1999	33,8	29,5	22,0	9,6	5,1
2000	35,3	28,9	21,3	9,8	4,7
2001	35,9	28,8	21,1	9,7	4,5
2002	33,6	29,6	22,0	10,0	4,8
2003	33,9	29,6	21,8	10,1	4,0

So'nggi yillarda tug'ilish darajasining pasayishi oilalarda to'rtinchi, beshinchi va undan yuqori bo'lgan bolalarning tug'ilish holatlari kamayib borayotganligi ham sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, birinchi, ikkinchi, uchinchi farzand ko'rganlarning ulushi yil sayin oshib kelgan bo'lsa, to'rtinchi, beshinchi va undan yuqori bo'lganlarning hisssasi kamayib bormoqda.

Masalan, 1960 yilda to'rtinchi farzand ko'rish 16,2 %, beshinchi va undan yuqori 29,0 foizni tashkil etgan holda, 2003 yilda mazkur jarayon, yuqoridagilarga mos ravishda, 10,1 va 4,4 foizdan iborat bo'ldi. Bu boradagi tafovut 1,6-6,6 marta qisqargan. 1960 yilda birinchi farzand ko'rish beshinchi va undan keyingi tug'ilganlardan 1,5 marta kam bo'lgan bo'lsa, 2003 yilda u aksincha, 7,7 marta ko'paygan.

Ikkinchi tug'ilgan bolalar ulushining yuqoriligi bilan Buxoro va Namangan, uchinchi tug'ilganlar-Andijon, Samarqand, Sirdaryo, to'rtinchi, beshinchi va undan keyin tug'ilganlar salmog'ining ko'p bo'lishi bilan esa Jizzax, hashqadaryo va Surxondaryo viloyatlari alohida ajralib turadi. Binobarin, respublika viloyatlari darajasida Surxondaryo, hashqadaryo, Jizzax viloyatlarida tug'ilish ko'rsatkichining yuqori bo'lishiga to'rtinchi, beshinchi va undan keyingi farzandlarning nisbatan ko'proq tug'ilishi ham sabab bo'ladi.

Shunday qilib, mamlakat aholisining biroz sekin o'sishi uning tabiiy va mexanik harakatiga bog'liq ravishda yuzaga kelmoqda. Chunonchi, tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan mintaqalarda aholi sonining o'sishi nisbatan yuqoriroq. Umuman olganda respublika viloyatlari aholi soni o'sishi oldingi yillarga qaraganda sezilarli darajada sekin bormoqda.

O'rganishlardan ma'lum bo'lishicha keyingi 10-15 yil mobaynida O'zbekistonda tug'ilish ko'rsatkichlarining birmuncha pasayganligi aholi tabiiy ko'payishining qisqarishiga olib kelgan. Ayni paytda tug'ilish koeffitsiyenti yuqori bo'lgan viloyatlarda uning kamayish «tezligi» biroz yuqori va, aksincha, tug'ilish holati past hududlarda bu holat sekinlik bilan davom etmoqda. Natijada, aholi tabiiy harakatidagi hududiy tafovutlar yil sayin kamayib bormoqda. Demografik

jarayonlarning bunday hududiy rivojlanish xususiyatlari ayniqsa viloyatlar miqyosidagi tadqiqotlarda yanada yaqqolroq namoyon bo'ladi.

II bob. Samarqand viloyati aholisining tabiiy harakati

2.1 Viloyat axoli sonining o'sishi va uning xududiy tafovutlari

Aholi sonining o'sishi, joylanishi va boshqa demografik ko'rsatkichlari respublikamiz hududlarida turlicha xarakterga ega. Bu esa ushbu jarayonlarning ayni vaqtda geografik xususiyatlaridan dalolat beradi. Shu jihatdan qaraganda Samarqand viloyati o'ziga xos geodemografik vaziyatga ega. Respublika aholisi singari Samarqand viloyat aholisi ham tabiiy ko'payish hisobiga o'smoqda.

So'nggi yillarda Samarqand viloyatida aholi tabiiy harakati, ya'ni tug'ilish va o'lim hollari biroz pasaygan. Viloyat aholisi, 2006 yil 1 yanvar ma'lumotiga ko'ra, 2915.3 ming kishidan iborat bo'lib, bu ko'rsatkich 1989 yildagiga nisbatan 633.4 ming kishiga ko'paygan yoki 127.7 foizga o'sgan; ko'rilayotgan yillarda o'rtacha yillik ko'payish 1.45 foizga teng bo'lgan. Viloyatning 25,6 % aholisi, ya'ni 746.6 ming kishi shaharlarda, 74,4 foizi yoki 2168.7 minggi qishloqlarda yashaydi.

Qishloqlarda aholi sonining o'sishi shaharlarga nisbatan birmuncha yuqori bo'lsada, biroq keyingi yillarda bu joylarda ham aholi soni sekin o'smoqda. Bunga asosan tug'ilish ko'rsatkichining kamayishi, oilada ko'pchilik hollarda avvalgidek, beshinchi, oltinchi, yettinchi, sakkizinchi farzandlarning tug'ilmayotganligi bo'lishi mumkin. Ayni vaqtda qishloqdagi oilalarning aksariyat ko'pchiligi to'rtta farzand bo'lishini xohlashmoqda.

Viloyat hududlarida aholi sonining o'sishida ma'lum darajada hududiy tafovutlar mavjud bo'lib, ular tumanlarning demografik xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga mos ravishda turlicha shakllanadi.

Tumanlar aholi sonining o'sish sur'ati bo'yicha uch guruhni ajratish mumkin. Ular quyidagilar:

1.Aholi soni o'sish darajasi yuqori bo'lgan tumanlar (147,8 % va undan ortiq): Ishtixon, Payariq, Urgut, Narpay;

2.Demografik rivojlanish sur'ati o'rtacha bo'lgan hududlar (130,6-147,7 %): Kattaqo'rg'on, Bulung'ur, Jomboy, Oqdaryo, Pastdarg'om, Paxtachi, Nurobod;

3.Aholi soni nisbatan sekin o'sayotgan tumanlar (130,5 % va undan kam): Tayloq, Samarqand va Qo'shrabot.

Viloyat tumanlari shaxar va qishloq axolisining o'sishidagi tafovutlar, eng avvalo, joylarning iqtisodiy ixtisoslashuvi va axoli milliy tarkibining turlichaligiga bog'liq. Masalan, Pastdarg'om (112,2 %), Paxtachi (115,8 %), Narpay (114,0 %) va Bulung'ur (120,2 %) tumanlarida shaxar axolisining qishloq axolisiga nisbatan o'sish sur'ati ancha past. Mazkur tumanlarda qishloq xo'jalik tarmoqlarini joylashtirish va uni qayta ishlash bilan bog'liq xolda sanoatning tashkil etilishi axoli mashg'ulotiga va yashash tarziga ma'lum darajada ta'sir etadi. qolgan tumanlarda shaxarlar asosan qishloq tumanlari markazi vazifasini o'taganligi sababli shaxar va qishloq axolisining o'sishidagi farqlar katta emas.

Qishloq aholisining o'sish darajasi Ishtixon (170,3 %), Payariq (168,2%), Urgut (157,7 %), Bulung'ur (151,5 %) tumanlarida yuqori. Ushbu tumanlarda, viloyatning boshqa tumanlaridan farq qilib, gidrografik shaxobchalar va axolining yer bilan ta'minlanganligi ancha yaxshiroq.

Qishloq aholisi Qo'shrabot va Samarqand tumanlarida biroz sekin o'smoqda (113,26-120,77%). Bu holatga tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jumladan, Qo'shrabot tumani tabiiy geografik jihatdan tog' va tog'oldi hududlarida joylashgan bo'lib, qishloq xo'jaligining asosan lalmikor dehqonchilik va yaylov chorvachiligiga ixtisoslashganligi, aholisining siyrak o'rnatilganligi, axoliga xizmat ko'rsatish soxalarining past darajada ekanligi ham aholining sekin o'sishiga olib keladi.

Samarqand tumanining esa viloyat markazini bevosita o'rab turganligi axolisining nixoyatda zich joylashuviga sabab bo'lgan. Bundan ko'rinib turibdiki,

tumanda yer resurslarining taqchilligi axolini uy-joy bilan ta'minlash muammosini keltirib chiqaradi. Natijada, umumiy xollarda axolining sekin o'sishi kuzatiladi.

Aholi sonining o'sishiga uning mexanik harakati ham ta'sir ko'rsatadi. Keyingi yillarda respublika aholisi mexanik ko'payishining manfiy tomonga o'zgarishidagi holat viloyat va uning tumanlarida ham kuzatiladi. Masalan, 2004 yilda viloyatga kelganlar 9675 kishini, ketganlar esa 18658 kishi, migratsiya qoldig'i minus 8983 kishini tashkil etdi. Migratsiya qoldig'i ming kishiga hisoblaganda, ko'rsatkichlar yuqoridagilarga mos ravishda minus 3,4; 6,5 va 3,1 dan iborat bo'ladi. Samarqand shahar kengashida har ming kishiga kelganlar 8,2 ketganlar 12,2 migratsiya qoldig'i -4,0 kishiga teng. Kattaqo'rg'on shahar kengashida esa bu ko'rsatkich 1,6; 12,2 va 10,6 bo'lib, migratsiya saldosidagi farq birmuncha kattaroq.

Aholining mexanik harakatida ham ma'lum darajada hududiy tafovutlar kuzatiladi. Jumladan, Qo'shrabot va Paxtachi tumanlarida kelganlar, har ming kishiga hisoblaganda, boshqa hududlarga nisbatan biroz ko'pchilikni tashkil etadi. Ushbu yilda ketganlarning hajmi bo'yicha ham mazkur tumanlar yetakchi hisoblanadi. Ushbu tumanlarda aholining mexanik harakatida yoshlar salmog'i yuqori bo'lib, axoli migratsiyasi jarayoni xududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga mos ravishda sodir bo'ladi. O'qishga, ishga yoki xizmat safariga borganlarning bir qismi o'zi yashayotgan joyga qaytishmoqda, qolganlari esa borgan joylarida doimiy yashab qolmoqda. Natijada, bu tumanlarda axolining mexanik ko'payishi boshqa tumanlarga qaraganda ancha past.

Aholisi soni ko'pligi bo'yicha viloyatda birinchi o'rinda turadigan Urgut tumanida o'rtacha yillik mutloq ko'payish 6,1 ming kishini tashkil etadi. Garchi aholi soni miqdoriga ko'ra Samarqand tumani (261,0 ming kishi) Pastdarg'om tumanidan (252,4) yetakchi hisoblansada, biroq ularda aholi sonining o'rtacha yillik mutloq ko'payishida birmuncha farq bor (3,8 va 4,3 ming kishi). Mazkur jarayonga asosan tug'ilish darajasi ta'sir qiladi, ya'ni Samarqand tumaniga nisbatan Pastdarg'om tumanida tug'ilish koeffitsiyenti yuqoridir.

Viloyat aholisining hududiy tarkibiga tabiiy sharoit bevosita ta'sir qiladi. Jumladan, aholi qadimdan tabiiy sharoiti qulay bo'lgan, sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlarda zich yashab kelgan. Hozirgi kunda ham aholi yirik va o'rta shaharlar hamda magistral yo'llar atrofining demografik sig'imi ancha yuqori. Binobarin, tumanlar miqyosida aholining joylanish salmog'i bir xil emas. Tumanlarning tabiiy sharoiti, yer resurslari bilan ta'minlanganlik darajasi, iqtisodiy geografik o'rni ta'sirida aholining joylashuvi ham har xil. Aholining hududiy mujassamlashuvi bo'yicha Urgut tumani viloyatda oldingi o'rinda turadi (10,3 %). Keyingi o'rinlarni Samarqand va Pastdarg'om tumanlari egallaydi (9,1-8,8 %). Urgut tumanida 1994 yilda viloyat aholisining 9,4 foizini o'zida mujassamlashtirgan bo'lsa, 2005 yilda bu ko'rsatkich 10,3 foizni tashkil etdi.

2.1-jadval

Samarqand viloyati aholisining o'sishida tabiiy va mexanik harakatning o'rni (1991-2005 yy.)

T/r	Tumanlar	Aholi soni, ming kishi		Umumiy ko'payish, ming kishi	Shundan		Foiz hisobida	
		1991	2005		Tabiiy ko'payish, ming kishi	Migratsiya qoldig'i, ming kishi	Tabiiy ko'payish	Migratsiya qoldig'i
	Viloyatda	2218.1	2915.3	697.2	831.0	-133.8	119.1	-19.1
	Samarqand sh	394.6	388.6	-6.0	54.7	-60.7	...	...
	Kattaqo'rg'on sh	69.3	75.4	6.1	19.4	-13.3	318.0	218.0
	Oqtosh sh.	30.0	34.5	4.5	6.8	-2.3	151.1	-51.1
	Urgut sh.	39.0	55.5	16.5	17.4	-0.9	105.4	-5.4
1.	Bulung'ur	96.4	138.2	41.8	47.1	-5.3	112.6	-12.6
2.	Jomboy	90.1	125.9	35.8	35.9	-0.1	100.2	-0.2
3.	Ishtixon	124.8	180.5	55.7	61.5	-5.8	110.4	-10.4
4.	Kattaqo'rg'on	144.0	202.9	58.9	63.0	-4.1	106.9	-6.9
5.	Narpay	86.2	125.1	38.9	40.7	-1.8	104.6	-4.6
6.	Nurobod	83.0	107.2	24.2	32.8	-8.6	135.5	-35.5

7.	Oqdaryo	80.4	112.3	31.9	33.8	-1.9	105.9	-5.9
8.	Poyariq	132.6	191.1	58.5	64.4	-5.9	110.0	-10.0
9.	Pastdarg'om	185.5	257.3	71.8	80.3	-8.5	111.8	-11.8
10	Paxtachi	87.1	117.4	30.3	33.8	-3.5	111.5	-11.5
11	Samarqand	206.1	265.4	59.3	61.5	-2.2	103.7	-3.7
12	Toyloq	101.5	142.2	40.7	41.1	-0.4	100.9	-0.9
13	Urgut	201.6	299.9	98.3	102.5	-4.2	104.2	-4.2
14	qo'shrabot	65.9	95.9	30.0	34.3	-4.3	114.3	-14.3

Aholi joylanish salmog'ining eng past ko'rsatkichi Nurobod tumanida kuzatiladi (3,7%). Biroq ushbu tuman viloyat xududining 28,0 foizini ishg'ol qilib, bu borada tumanlar orasida yetakchilik qiladi. Tumanning katta qismi cho'llardan iborat bo'lishi aholining siyrak joylanishiga sabab bo'lgan.

Aholi sonining o'sishi, uning tabiiy va mexanik xarakati natijasida joylarning demografik sig'imi xam o'zgarib boradi va bu, eng avvalo, zichlik ko'rsatkichlarida o'z aksini topadi. Ma'lumki, aholi azaldan tabiiy sharoiti qulay, obikor dehqonchilik rivojlangan joylarda zich yashab kelgan.

Viloyat hududidan Zarafshon daryosining oqib o'tishi aholi joylashuvida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu daryo bo'ylab joylashgan tumanlarda aholi zichligida ma'lum darajada ichki tafovutlar mavjud, ya'ni tumanlarning daryoga yaqin qismlarida aholi birmuncha zichroq yashaydi. Aksincha, daryodan uzoq va suv tanqis bo'lgan hududlarda aholi ancha siyrak joylashadi.

Umuman olganda, Samarqand viloyati aholisining joylashuvida quyidagi guruhlarni ajratish mumkin:

- nisbatan yuqori urbanizatsiyalashgan tumanlar (Samarqand va Tayloq tumanlari), ushbu guruh tumanlarda aholi zichligi 543,7-507,8 kishidan iborat;
- intensiv sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlar (Oqdaryo, Ishtixon, Payariq, Bulung'ur, Pastdarg'om, Kattaqo'rg'on, Narpay, Urgut va Jomboy tumanlari)-zichlik 138-303 kishi;
- tog' va tog'oldi, cho'l mintaqalari-Qo'shrabot, Nurobod va Paxtachi tumanlarida aholi zichligi 44-22 va 86 kishini tashkil etadi.

Viloyatda aholi zichligi o'rtacha 1 km² maydonga 174 kishi, Samarqand va Tayloq tumanlarida esa bu ko'rsatkich ancha yuqori, ular Samarqand shaxri atrofida joylashgan bo'lib, bu yerda axolining ish bilan bandlik darajasi yuqori, infratuzilma tizimi yaxshi rivojlangan va viloyat markazini yangi qishloq xo'jalik maxsulotlari bilan ta'minlashga ixtisoslashgan. Tumanlarning joylashgan o'ri, tabiiy va agroiqlimiy sharoitlari, shuningdek infratuzilmasining rivojlanganligidagi farqlar ularda aholi zichligining turlicha bo'lishiga sabab bo'ladi. Masalan, Samarqand (553 kishi) va Nurobod (22 kishi) tumanlari orasidagi aholi zichligining hududiy tafovuti 25 martadan ziyod.

Sug'orma dehqonchilik rivojlangan Oqdaryo va Pastdarg'om tumanlarida ham aholi zichligi birmuncha yuqoridir. Bunda aholi qo'l mehnati ko'p talab qilinadigan qishloq xo'jaligi bilan band. Demak, mazkur tumanlarda intensiv dehqonchilik, ya'ni yerdan unumli va samarali foydalanish yaxshi rivojlangan. Ayni chog'da tabiiy sharoitiga ko'ra, cho'l va tog'oldi mintaqalariga to'g'ri keladigan Nurobod, qo'shrabot va Paxtachi tumanlarida aholi biroz siyrak joylashgan. Ushbu hududda lalmikor dehqonchilikning ustunligi va yerdan ekstensiv foydalanish kuzatiladi. Bundan tashqari, ko'rilayotgan tumanlarda yaylov chorvachiligi ko'p ishchi kuchi talab qilmaydi. Shu sababdan mahalliy aholining obikor dehqonchilik qilinadigan rayonlarga va hatto qo'shni viloyatlarga ko'chib ketishi ham uchrab turadi.

Viloyatda infratuzilma tizimining rivojlanganlik darajasidagi hududiy farqlar va kishilarning xo'jalik faoliyatiga bog'liq holda qishloq aholi manzvilgohlarining katta-kichikligi har xil. Jumladan, Samarqand tumanida katta qishloqlarning ko'p bo'lishi tabiiy hol. Chunki, tuman Samarqand shahriga bevosita tutashganligi sabab bu yerda urbanizatsiyalanish jarayoni boshqa tumanlarga nisbatan yuqori. Tumanda har bir qishloqqa o'rtacha 2543 kishi to'g'ri keladi. Shuningdek, daryo vodiysiga yaqin joylashgan Urgut va Pastdarg'om tumanlarida ham qishloq aholi manzvilgohlari birmuncha kattaroq.

Shahar va daryo vodiylaridan uzoqlashib, cho'l va tog'oldi hududlariga borgan sari qishloqlarning kichiklashishi va aholi zichligining pasayishi ko'zga

tashlanadi. Chunonchi, qo'shrabot tumanida har bir qishloqqa o'rtacha 615 kishi to'g'ri keladi (viloyatda o'rtacha 1032 kishi). Viloyat hududining 28 foizini tashkil qiluvchi, cho'l mintaqasida joylashgan Nurobod tumanida esa aholi nihoyatda siyrak yashaydi (zichlik 22 kishi). Ajablanarlisi–tumanda «O'zqishloqloyiha» ma'lumotlariga ko'ra, bitta oila xo'jaligidan iborat bo'lgan manzilgohlarni ham uchratish mumkin (Beshtol va Junli qishloqlari). Bunda asosan chorvador oilalar istiqomat qiladi.

Qishloq axolisining zichligi, aholi manzilgoxlarining soni, ularning katta-kichikligi joylarning tabiiy sharoiti, geografik o'рни, xo'jalik sohalariga ixtisoslashganligiga bog'liq. Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, viloyat tumanlarining tabiiy sharoiti va infratuzilma tizimidan kelib chiqqan holda qishloq aholi manzilgohlarini ularning katta-kichikligi bo'yicha quyidagi guruhlariga ajratish mumkin:

- aholi soni 1000 kishigacha bo'lgan qishloqlar Payariq, Narpay va Kattaqo'rg'on tumanlarida ko'pchilikni tashkil etib, viloyatdagi 1000 kishigacha bo'lgan jami qishloqlarning 33,4 foizini tashkil qiladi;
- 1000-3000 kishilik aholiga ega bo'lgan qishloqlar Urgut, Pastdarg'om va Samarqand tumanlarida ko'proq bo'lib, ularning xissasiga viloyatdagi 1000-3000 kishigacha bo'lgan jami qishloqlarning 37,9 foizi to'g'ri keladi;
- axoli soni 3000-5000 kishigacha bo'lgan qishloqlar bo'yicha Samarqand va Urgut tumanlari yetakchi hisoblanib, ular viloyatdagi mazkur guruhga tegishli bo'lgan jami qishloqlarning 52 foizini tashkil qiladi.
- eng yirik qishloqlar (5000 kishidan ortiq) ham ko'proq.

Samarqand, Urgut va Kattaqo'rg'on tumanlariga to'g'ri keladi. Ushbu hududlarda viloyatdagi aholisi 5000 kishidan ziyod bo'lgan jami qishloqlarning 80,9 foizi joylashgan. Jumladan, Samarqand tumanida Arabxona va Xo'jasoat, Urgutda-Kamangaron, Kattaqo'rg'on tumanida Moybuloq va Andoq qishloqlari katta qishloqlar sirasiga kiradi. Bu qishloqlarda aholi azaldan dehqonchilik bilan birgalikda hunarmandchilik bilan ham shug'ullanib kelishgan

2.2. Viloyat aholisining tabiiy xarakatidagi tadrijiy o'zgarishlar

Viloyat aholisining tabiiy harakatida keyingi 10-15 yil ichida birmuncha siljishlar kuzatilib, ular xususan tug'ilish va o'lim darajasining kamayishiga bog'liq holda yuzaga kelmoqda. Masalan, 1991 yil viloyatda tabiiy ko'payish koeffitsiyenti 29,3 promilleni tashkil etgan holda, 2005 yilga kelib bu ko'rsatkich 16,9 promillegacha qisqardi. Shahar aholisida bu ko'rsatkich 19,1 promilledan 10,8 promillega, qishloq aholisida 33,6 va 18,8 promillega tushib qoldi. Demak, tug'ilish darajasining kamayishiga mos holda tabiiy ko'payish ko'rsatkichi ham pasayib borgan. Masalan, Urgut va Bulung'ur tumanlari 1995 yilga qadar tabiiy ko'payish koeffitsiyentining yuqoriligi bo'yicha yetakchi hisoblangan. Keyingi yillarda esa Narpay va Ishtixon tumanlari oldingi o'rinlarga chiqib oldi. Ko'rinib turibdiki, yer resurslariga boy, sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlarda tabiiy ko'payish darajasi yuqoriroq va, aksincha, yer tanqis va aholisi zich yashaydigan Samarqand, shuningdek maydonining katta qismi cho'l mintaqasiga to'g'ri keladigan Paxtachi tumanlarida ushbu ko'rsatkich biroz past.

Aholining tabiiy ko'payish koeffitsiyentlari shahar va qishloq joylarda bir xil emas. Shaharlarda bu jarayon birmuncha past darajada bo'lib, u ijtimoiy va iqtisodiy omillar ta'sirida shakllanadi. Chunonchi, 1991 yilda Samarqand shahrida tabiiy ko'payish koeffitsiyenti 16,1 promilleni tashkil qilgan bo'lsa, 2005 yilda u har ming kishiga 7,4-ga teng bo'ldi. Bu davr mobaynida tabiiy ko'payish ko'rsatkichi 8,7 promillega qisqargan. Urgut shahrida bu holat 33,0 promilledan 20,9 ga tushib, 12,1 promillega kamaygan.

Biroq shuni ta'kidlab o'tish joizki, 1991 yilda Samarqand va Urgut shaharlari aholi tabiiy ko'payish darajasidagi farq ikki barobarga yaqin bo'lgan, 2005 yilga kelib esa u qariyb uch barobarga yetdi. Bunga Samarqand shahrining ma'muriy funksiyasi, sanoati, aholisining ko'p millatligi, migratsiya jarayonlarining faolligi, aholining ish bilan bandlik darajasining birmuncha yuqoriligi kabilar sabab bo'lgan.

Urgut shahrida esa vaziyat biroz boshqacharoq: shaharda tub joy aholining katta miqdorni tashkil etishi; migratsiya jarayonlarining sustligi, o'zbekona udum va an'analarga e'tiborning o'ziga xosligi singari omillar aholi tabiiy ko'payish darajasining biroz yuqori bo'lishiga olib keladi. Mazkur holatni tumanlar shahar aholisi miqyosida olib qaraydigan bo'lsak, ularda ham farqlar sezilarli darajadadir.

Keyingi yillarda viloyat shahar aholisi singari qishloq aholisida ham tabiiy ko'payish ko'rsatkichining pasayganligi haqida jadval ma'lumot beradi. Ammo bu borada tumanlar o'rtasida tafovut unchalik katta emas. Ayni paytda, respublikada bo'lgani singari, viloyatda aholining tabiiy ko'payish ko'rsatkichini tug'ilish darajasi belgilab bermoqda. Buni viloyat shahar va qishloq tumanlarining aholini tabiiy ko'payish koeffitsiyenti bo'yicha guruhlanishida ham ko'rish mumkin. Tabiiy ko'payish koeffitsiyenti past bo'lgan hududlarga Samarqand va Oqtosh shaharlari bilan birgalikda Samarqand tumani ham kiritildi.

2.2-jadval

Samarqand viloyati shahar va qishloq tumanlarining aholini tabiiy ko'payish koeffitsiyenti bo'yicha guruhlanishi

Guruhlar	Shahar va tumanlar	Aholi soni (1 yanvar 2006 y.), ming kishi	Foiz hisobida	
			Shaxar va tumanlar soni	Aholisi
Tabiiy ko'payish koeffitsiyenti past bo'lgan hududlar (15,7 promillegacha)	Samarqand va Oqtosh shaharlari, Samarqand tumani (3)	688,6	16,7	23,7
Tabiiy ko'payish darajasi o'rtacha bo'lgan hududlar (15,8-21,5 ‰)	Jomboy va Paxtachi tumanlari va Kattaqo'rg'on shahri (3)	318,9	16,7	10,9
Tabiiy ko'payish	Urgut, Ishtixon, qo'shrabot, Payariq,	1907,8	66,6	65,4

ko'rsatkichi yuqori bo'lgan xududlar (21,6 % va undan yuqori)	Bulung'ur, Narpay, Kattaqo'rg'on, Pastdarg'om, Tayloq, Nurobod, Oqdaryo tumanlari va Urgut shaxri (12)			
Jami	18	2915,3	100,0	100,0

Umuman olganda, tabiiy ko'payish koeffitsiyenti past bo'lgan hududlarda viloyat aholisining 23.7 foizi yashaydi. Shahar va qishloq tumanlarining aholi tabiiy ko'payish koeffitsiyenti bo'yicha guruhlanishidagi holat tug'ilish darajasini guruhlashda ham takrorlanadi. Chunki, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tabiiy ko'payish holatini tug'ilish darajasi belgilab beradi.

Shahar va qishloq tumanlarining aholi tabiiy ko'payish koeffitsiyenti bo'yicha guruhlanishidagi holat tug'ilish darajasini guruhlashda ham takrorlanadi. Chunki, yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, tabiiy ko'payish holatini tug'ilish darajasi belgilab beradi.

Viloyatda tabiiy ko'payishga monand holda tug'ilish darajasining pasayib borishi kuzatilmoqda. Shu o'rinda ta'kidlash lozimki, tug'ilish darajasining pasayishini faqat shu nuqtai nazardan baxolash noto'g'ri. Gap shundaki, oilada bolalar sonini to'g'ri rejalashtirish, ushbu oila uchun qulayliklar tug'diradi, ya'ni farzandlarning ma'naviy barkamol bo'lib yetishishi uchun zamin yaratiladi.

Statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, qishloq joylarda ham so'nggi yillarda tug'ilish darajasi birmuncha pasaygan. Tug'ilishning bu tarzda qisqarib borishi davom etadigan bo'lsa, yaqin yillarda shahar va qishloq aholisi tug'ilish koeffitsiyentidagi farq ancha qisqaradi.

Qishloq aholisi tug'ilish koeffitsiyentining yuqoriligi bilan Bulung'ur tumani oldingi o'rinda turadi. Mazkur tumanda qishloq xo'jaligining ixtisoslashuvi axoli mashg'ulotiga bevosita ta'sir etadi. Natijada, tug'ilish ko'rsatkichi shunga mos ravishda shakllanadi, ya'ni oilada farzandlar ham ma'lum darajada moddiy ne'mat

yaratadi. Xuddi shunday holat Ishtixon, Payariq va Urgut tumanlarida ham kuzatiladi.

Tug'ilish darajasi ayrim hollarda o'lim ko'rsatkichiga ham bog'liq. Masalan, homilaning yaxshi rivojlanmasligi oqibatida o'lik bola tug'ilishi onalarning ruhiyatiga anchagina ta'sir qiladi va ma'lum vaqt sog'ligini tiklaguncha farzand ko'rishmaydi.

So'nggi yillarda viloyatda ham tug'ilish darajasining biroz pasayishi, reproduktiv yoshdagi ayollarning tug'ish yoshlarini yosharishiga bog'liq holda yuzaga kelmoqda. Viloyatda farzand ko'rgan ayollarning asosiy qismi 20-29 yoshdagilarga to'g'ri keladi.

2.3. Aholi tabiiy harakatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-demografik omillar

Aholi tabiiy harakatini o'rganishda aholi takror barpo bo'lish samaradorligini hisoblab chiqish ham ma'lum ahamiyatga ega. Buning uchun aylanma harakat, ya'ni tug'ilish va o'lim ko'rsatkichlarining yig'indisi aniqlanadi. Tabiiy ko'payishning aylanma harakatga bo'lgan nisbati aholi takror barpo bo'lish samaradorligini beradi.

Masalan, 2005 yil yakunlari bo'yicha hisoblaganda, viloyatda aylanma harakat 26,5 promilleni tashkil etib, tabiiy ko'payish samaradorligi 0,65 punktdan iborat bo'ldi. Mazkur jarayon hududlar bo'yicha turlicha bo'lib, ma'lum darajada tafovutlarga ega. Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, Oqdaryo, Jomboy, Paxtachi, Samarqand tumanlari va Samarqand shahrida bu holat viloyat o'rtacha ko'rsatkichidan pastroq. Tabiiy xarakat samaradorligining past bo'lishi aholi soning sekin o'sishiga va demografik jarayonlarning sust rivojlanishiga sabab bo'ladi.

Tabiiy harakat samaradorligining yuqoriligi bilan Narpay, Ishtixon va Kataqo'rg'on tumanlari ajralib turadi. Shuningdek, Payariq, Pastdarg'om, Urgut tumanlarida xam bu ko'rsatkich yuqoriroq. Ta'kidlash lozimki, tabiiy sharoitiga ko'ra cho'l va tog'oldi hududlarida joylashgan Nurobod va qo'shrabot tumanlarida

aholining aylanma harakatiga bog'liq ravishda ko'rilayotgan ko'rsatkich ham birmuncha yuqori.

Samarqand shahrida tabiiy harakat samaradorligining past bo'lishi aylanma harakatda tug'ilish darajasining kamligi va o'limning nisbatan yuqoriligi bilan belgilanadi va bu shahar aholisi sonining sekin o'sishiga olib keladi. Umuman olganda, esa aholi takror barpo bo'lishi samaradorligining yuqori bo'lishi aholi sonining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi va bu onalar salomatligini yaxshilash nuqtai nazaridan ham ijobiydir.

2.3-jadval

Aholi takror barpo bo'lish samaradorligi

	Tumanlar	Tug'ilish, ‰	O'lim, ‰	Tabiiy ko'payish, ‰	Aylanma xarakat, ‰	Tabiiy xarakat samaradorl igi
	Viloyatda	21,8	4,7	17,1	26,5	0,65
1	Bulung'ur	25,9	4,7	21,2	30,6	0,67
2	Jomboy	21,2	5,1	16,1	26,3	0,61
3	Ishtixon	24,3	3,9	20,4	28,2	0,72
4	Kattaqo'rg'on	23,8	4,0	19,8	27,8	0,71
5	Narpay	27,6	3,7	23,9	31,3	0,76
6	Nurobod	25,2	4,5	20,7	29,7	0,69
7	Oqdaryo	21,3	4,5	16,8	25,8	0,65
8	Payariq	24,1	4,3	19,8	28,4	0,69
9	Pastdarg'om	24,6	4,5	20,1	29,1	0,69
10	Paxtachi	19,5	4,6	14,9	24,1	0,62
11	Samarqand	18,9	4,8	14,1	23,7	0,59
12	Tayloq	24,4	4,5	19,9	28,9	0,68
13	Urgut	23,4	4,2	19,2	27,6	0,69
14	qo'shrabot	25,6	4,6	21,0	30,2	0,69
	Samarqand shahri	14,3	6,6	7,7	20,9	0,37

Aholi tabiiy xarakatiga ta'sir etuvchi omillardan biri nikox va ajralishdir. Ayrim xududlarda jinslar o'rtasidagi nomutanosibliklar nikox ko'rsatkichlarining turlicha bo'lishiga sabab bo'ladi. Shuning uchun mintaqalarda nikox ko'effitsiyenti bir xil bo'lmaydi. Masalan, 1991 yil viloyatda nikox ko'rsatkichi 11,9 promilleni tashkil etgan xolda, 2005 yilda u 4,9 promillega tushib qolgan. Ajralish xollari esa 1,1 – 0,4 ‰. darajasida o'zgargan. Tug'ilish ko'effitsiyentining pasayib borayotganligi bevosita nikox xolatlariga xam o'z ta'sirini o'tkazadi, chunki ayni vaqtda tug'ilganlar kelajakda 20-25 yildan keyingi nikox ko'rsatkichini ifodalaydi.

Tumanlar miqyosida nikoh ko'rsatkichlari keskin farq qilmaydi. Ammo ajralish ko'effitsiyentida ma'lum darajada farqlar mavjud. Masalan, Samarqand va Jomboy tumanlarida ajralish hollari boshqa hududlarga nisbatan biroz yuqoriroq. Mazkur tumanlarda aholi milliy tarkibida rusiyzabon xalqlarning mavjudligi, aholining zich joylashuvi va nisbatan ishsizlar sonining ko'p bo'lishi turli ijtimoiy – iqtisodiy muammolarni keltirib chiqaradi. Ajralish holatlari mahalliy millat vakillariga qaraganda boshqa millat vakillarida ko'proq uchraydi. Ajralishning ko'p bo'lishi aholi tabiiy xarakatiga va oila tizimini rivojlantirishga salbiy ta'sir qiladi.

Viloyat aholisining tabiiy xarakati ko'rsatkichlari uning milliy tarkibiga xam bog'liq. Ulardagi urf-odat, udum va an'analar, yashash joyi, xayot tarzi kabilardagi farqlar millatlarda tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish ko'rsatkichlarining turlicha bo'lishiga olib keladi.

Samarqand viloyati axolisi respublikaning boshqa viloyatlari orasida nisbatan ko'p millatliligi bilan ajralib turadi. Xususan, viloyat markazi Samarqand tarixiy shaxar bo'lib, bu yerda azaldan turli millat vakillari yashab keladi. Umuman olganda esa, viloyat axolisining asosiy qismini o'zbeklar tashkil etib, ularning ulushi 1979 yilda 78,5%, 1989 yil 77,3% va 2005 yilda 85,0 foizga teng bo'ldi. 1979 yilda o'zbeklardan keyingi o'rinda bo'lgan ruslarning ulushi nisbiy

ko'rsatkichlarda 1979-2005 yillarda 6,6 foizdan 2,2 foizga qisqardi. Ayni vaqtda tojik millatiga mansub axolining soni ancha o'sdi.

1979 yildan 1989 yilgacha bo'lgan davrda viloyatda deyarli barcha millat vakillarining miqdori oshib borgan (ruslar, ozarbayjonlar, koreyslar bundan mustasno). 1989-2005 yillar davomida esa viloyatda, ayniqsa nomaxalliy millat vakillarining salmog'i biroz kamaygan. Maxalliy millat vakillari ayniqsa, o'zbeklar va tojiklar miqdori ko'payib bormoqda. Ayni vaqtda tojiklar viloyat shaxar axolisining 11,1 foizini tashkil etadi. So'nggi yillarda viloyatda o'zga millat vakillarining kamayib borishiga ulardagi migratsiya jarayonining yuqoriligi va tug'ilish jarayonining pastligi sabab bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, viloyat axolisining 8,5 foizini tashkil qiluvchi tojik millatida xam tug'ilish darajasi yuqori emas. Mazkur millat vakillarining asosiy qismi Samarqand shaxri va tuman markazlarida yashaganliklari tufayli, «shaxarcha» turmush tarziga mos ravishda tug'ilish koeffitsiyenti xam pastroq. Ayni paytda axoli salmog'iga ko'ra kam sonli bo'lgan turkmanlar va qozoqlar viloyat axolisi tabiiy xarakatidagi o'zgarishlarga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatmaydi.

2.4-jadval

Samarqand viloyati aholisining etnodemografik ko'rsatkichlari

Millatlar	Tug'ilish	O'lim	Tabiiy ko'payish
Viloyat bo'yicha	22,0	4,7	17,3
o'zbeklar	24,3	4,6	19,7
Ruslar	4,4	13,4	-9,0
ukrainlar	2,5	8,4	-5,9
qozoqlar	5,2	1,8	3,4
ozarbayjonlar	15,8	6,0	9,8
yaxudiylar	1,3	2,2	-0,9
tojiklar	9,5	2,4	7,1
turkmanlar	7,0	2,1	4,9
tatarlar	6,0	10,6	-4,6

koreyslar	6,9	9,8	-2,9
armanlar	6,5	10,5	-4

Millatlar o'rtasida tug'ilish ko'rsatkichidagi kabi farqlar o'lim xolatida xam kuzatiladi. Rusiyzabon millat vakillarida tug'ilish darajasining pastligi ularda axoli tarkibida keksalarning ko'p bo'lishiga sabab bo'ladi. Tabiiyki, keksa yoshdagilarda o'lim xolatlari ko'proq uchraydi. Shu bois maxalliy millatlarda tug'ilish darajasining nisbatan yuqori bo'lishi axoli tarkibida yoshlarning miqdori ko'p bo'lishiga olib keladi. Yoshlarda o'lim holatlari keksa yoshdagilarga qaraganda ancha kam uchraydi.

Viloyat aholisi milliy tarkibida tabiiy ko'payish ko'rsatkichi ham turlicha bo'lib, tug'ilish darajasiga mos ravishda o'zbek, ozarbayjon va tojik millatlarida yuqori, rus, ukrain va armanlarda esa noldan past. Tabiiy ko'payish koeffitsiyentining noldan past bo'lishi, shu millat vakillarida axoli sonining kamayib borayotganligidan dalolat beradi, ya'ni axolining «qarishi» kuzatiladi.

Aholi tabiiy harakatiga uning jinsiy tarkibi bevosita ta'sir ko'rsatadi. Jinslar o'rtasidagi nomutanosibliklar demografik jarayonlarga, xususan tug'ilish ko'rsatkichining o'zgarishiga sabab bo'ladi. Ikkinchi jahon urushi respublika aholisining jinsiy tarkibidagi farqlarning kattalashishiga olib keldi. Mazkur tafovut bir necha yillar davomida demografik jarayonlarga ta'sir etib, ayniqsa urush yillarida tug'ilish darajasining kamayib ketishida va o'sha davrda tug'ilganlar nikoh yoshiga yetganda ham ularning kam sonligi sezilarli bo'ladi.

Ayni paytda jinslar o'rtasidagi nomutanosibliklar katta emas. Viloyatda erkaklar jami aholining 49,9 foizini, ayollar esa 50,1 foizni tashkil etadi. Jinslar o'rtasidagi mutanosibliklarni taqqoslashda mutloq raqamlardan ko'ra, nisbiy ko'rsatkichda ifodalash ancha qulayroq. Aholi jinsiy tarkibidagi farqlar yillar davomida o'zgarib turadi.

Aholi jinsiy tarkibining turlichaligiga yangi tug'ilganlarda jinsiy nomutanosibliklar, o'limning jinslardagi farqi hamda aholi migratsiyasida erkaklar va ayollarning turlicha harakatchanligi ta'sir ko'rsatadi.

Viloyat aholisining jinsiy tarkibida 20 yoshdan keyin ayollar salmog'ining oshib borishi kuzatiladi. Bunda asosan ayollarga nisbatan erkaklar o'rtasida o'lim holatlari ko'proq sodir bo'ladi. Erkaklarning yosh tarkibiga mos ravishda, ayniqsa o'smirlar orasida baxtsiz hodisalar tufayli o'lganlar ko'pchilikni tashkil etadi. Aholining yosh tarkibi barcha jarayonlarda, shuningdek demografik vaziyatlarda ham muhim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, u qator demografik ko'rsatkichlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, aholi tarkibida yoshlar miqdorining ko'p bo'lishi bu ijobiy hol. Sababi-aholi o'rtasida nikoh va tug'ilish darajasi yuqori va o'lim holatlari past bo'ladi. O'z navbatida, demografik jarayonlar aholining yosh tarkibini o'zgarishiga, ya'ni tug'ilishning kamayishi aholining qarishiga, aholi tarkibida keksalar sonining o'sishiga olib keladi. Shuning uchun aholining yosh tarkibi demografik jarayonlar bilan hamohang bo'lmog'i lozim. Bu aloqadorlik aholining o'sish sur'atiga, uning tabiiy va mexanik harakatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Viloyatda aholining yosh tarkibida 10-14 yosh va 15-19 yoshdagilarning salmog'i yuqori bo'lib, bu demografik jarayonlarning rivojlanishiga zamin yaratadi va kuchli demografik saloxiyatni belgilab beradi. Aholi tarkibida keksa yoshdagilar ulushining kamayib borishi ularda o'lim holatlari ko'proq kuzatilishi bilan izohlanadi.

Viloyatda 0-14 yoshgacha bo'lgan bolalar hissasi jami aholining 36,0 foiziga to'g'ri keladi. Bunday demografik vaziyat viloyatda aholini, xususan bolalarni ijtimoiy muxofaza qilishni, aynan ana shu yoshdagilar uchun ta'lim hamda sog'liqni saqlash tizimlarida tegishli infratuzilma shaxobchalarini rivojlantirishni talab qiladi. 15 yoshdan 59 yoshgacha bo'lganlar viloyat aholisining 58,6 foizini, 60 yosh va undan katta bo'lganlar 5,4 foizini tashkil etadi. Viloyatda aholining yosh tarkibida qariyalarga nisbatan yoshlar salmog'i ancha yuqori. Bu esa o'z o'rnida aholining birmuncha tez o'sishiga, nikoh va tug'ilish koeffitsiyentining ko'tarilishiga, aholi takror barpo bo'lishi uchun qulay sharoit yaratilishidan dalolat beradi.

Mintaqa aholisining katta qismini (58,6 %) 15 yoshdan 59 yoshgacha bo'lganlar tashkil qilishi muhim ijtimoiy-iqtisodiy mazmun kasb etadi. Jumladan, bu yoshdagilarning aksariyat ko'pchiligi iqtisodiy faol, ya'ni mehnatga yaroqli aholi hisoblanadi. Shuning uchun demografik vaziyatdan kelib chiqqan holda kerakli ish o'rinlarini tashkil etish ham maqsadga muvofiqdir.

Respublikada bo'lganidek, viloyatda ham aholining tabiiy ko'payishini eng avvalo tug'ilish darajasi belgilab bermoqda. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, yer resurslari bilan nisbatan yaxshi ta'minlangan sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlarda tabiiy ko'payish darajasi birmuncha yuqoriroq, demografik vaziyat aholisi zich joylashgan tumanlarda esa ushbu ko'rsatkich biroz past. Tumanlar o'rtasida tug'ilish darajasidagi hududiy tafovutlar sekinlik bilan qisqarib bormoqda. Aholi tabiiy harkatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-demografik omillar nikoh va ajralish, aholining milliy, jinsiy va yosh tarkibidagi holatlar tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga mos holda turlicha shakllangan. Shu bilan birga oilaning mustahkamligi va barqarorligi katta ma'naviy va tarbiyaviy ahamiyat kasb etadi.

2.4 Samarqand viloyati aholisining milliy tarkibi

Demografik jarayonlarning rivojlanishi barcha sohalarni, shuningdek, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, maorif, aholiga xizmat ko'rsatish tizimlarining shakllanishiga ma'lum darajada o'z ta'sirini ko'rsatadi. O'tish davrida ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi demografik vaziyatda ham o'z aksini topadi. Bu davrda aholining turli qatlamlarida turmush tarzi turlicha kechib, ayniqsa kam ta'minlangan oilalarda yangi sharoitga moslashuv sezilarli darajada qiyinroq kechadi. Ularga, odatda, ko'p bolali oilalar, boquvchisini yo'qotganlar, yosh oilalar kabilar misol bo'lib, yangi davrga o'tishda oila byudjetini sharoitga moslashtirishda birmuncha qiyinchiliklarga duch keladi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, mazkur oilalarga moddiy yordam berish maqsadida bozor munosabatlariga o'tish davrida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish davlat tomonidan belgilab qo'yilgan.

Aksariyat hollarda aholining ijtimoiy jihatdan ta'minlanganligi uning sonining o'sishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Mazkur ishdagi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, keyingi yillarda aholining o'sishi asosan tabiiy ko'payish hisobiga amalga oshib, tug'ilish ko'rsatkichining pasayishi bilan uning o'sishi ham sekinlik bilan bormoqda. Tahlil va kuzatishlardan ma'lum bo'lishicha, aholining kam ta'minlangan qatlamlarida tug'ilish darajasi moddiy jihatdan yaxshi ta'minlangan oilalardagiga nisbatan pastroq. Bunda asosan uy-joy, oziq-ovqat, kiyim-kechak va bolalar uchun qulay sharoit yaratib berish muammosi turadi.

Aholining o'sish sur'ati hududlarning ichki imkoniyatlariga mos ravishda turlicha shakllangan. Tabiiy sharoiti qulay, obikor dehqonchilik rivojlangan va yer resurslari bilan yaxshi ta'minlangan joylarda aholining o'sish sur'ati birmuncha yuqori. Aksincha, yer resurslari cheklangan, aholisi zich joylashgan hududlarda (Samarqand va Tayloq tumanlari), shuningdek tabiiy sharoiti noqulay cho'l, tog' va tog'oldi mintaqalarda aholining o'sish darajasi nisbatan pastroq. Bunday holat Samarqand, Tayloq, Nurobod va qo'shrabot tumanlarida kuzatilib, bu yerda aholi sonining o'sish darajasi 130,5 foizdan kam.

Binobarin, Samarqand viloyatida aholining o'sishini ma'lum darajada tartibga solish uchun mavjud imkoniyatlarni ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Chunonchi, yer resurslariga boy lalmikor dehqonchilik qilinadigan Nurobod va qo'shrabot tumanlarida irrigatsiya inshootlarini qurish, mazkur joy sharoitlaridan kelib chiqqan holda dehqonchilik tarmoqlarini ham imkoniyat darajasida rivojlantirish, bularga mos ravishda kichik va o'rta tadbirkorlikni shakllantirish hisobiga aholisi zich joylashgan hududlardan ko'ngilli aholini ko'chirib keltirish ishlarini tashkil qilishni yo'lga qo'yish darkor. Bu esa aholi uchun ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni hal etib, hududda maktabgacha ta'lim muassasalarini, maktablar, qishloq vrachlik punktlari qurishni va aholiga maishiy xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirishni, shuningdek, aholini toza ichimlik suvi va tabiiy gaz bilan ta'minlashni taqozo etadi.

Mintaqada demografik jarayonlarning rivojlanishi, aholining sifat ko'rsatkichlari, ya'ni bolalar salomatligi, bilim saviyasi, ijtimoiy-siyosiy va

ekologik muammolarga bog'liq. Keyingi yillarda viloyatda bolalar salomatligiga e'tiborning kuchayganligini go'daklar o'limining pasayishida ham ko'rish mumkin.

Viloyatning barcha tumanlarida go'daklar o'limi oldingi yillarga nisbatan qaraganda ancha pasaygan. Biroq tumanlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanganlik darajasi, aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish holatidagi tafovutlar go'daklar o'limining kundalik hayot sharoitlari nisbatan past bo'lgan hududlarda biroz yuqori bo'lishiga sabab bo'ladi. Natijada, mazkur hududlarda aholiga tibbiy va maishiy xizmat ko'rsatish darajasini yaxshilash zaruriyati kelib chiqadi. Bundan tashqari, mintaqada go'daklar o'limining kamayishida, ayollar maslahatxonalarining tashkil etilishi, turli xil yuqumli kasalliklarni oldini olish maqsadida aholi o'rtasida tibbiy profilaktik tadbirlarning o'tkazilishi, atrof-muhit tozaligiga e'tibor berilishi ham muhim omillar hisoblanadi. Respublikada kechayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar oilalarda farzandlar sonini ularning ketma-ketligini tartibga solishni, aholining sifat ko'rsatkichlarini yaxshilashni taqozo etadi. Shuningdek, bu xususda tibbiyot xodimlari reproduktiv yoshdagi ayollarda navbati bilan farzand ko'rish orasidagi intervalni kamida uch yil deb baholaydilar. Farzand ko'rgan ayollar organizmida ayniqsa temir moddasining kamayib ketishi ularning quvvatsizlanishiga olib keladi. Homiladorlik paytida yo'qotilgan salomatlikning tiklanishiga 2-3 yil vaqt kerak bo'ladi. Agarda ayollarning yilma-yil tug'ish holatlari kuzatiladigan bo'lsa, nosog'lom go'daklar dunyoga keladi. Ushbu holatlarni oldini olish xususida tibbiyot xodimlar tomonidan ona va bola salomatligiga e'tiborni kuchaytirgan tarzda, onalarga vaqtinchalik homiladan saqlanishni tavsiya etadilar.

Demografik jarayonlarning rivojlanishiga ekologik muammolar ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shaharlar va tuman markazlarida, nisbatan sanoatlashgan hududlarda atrof-muhit asosan sanoat korxonalaridan chiqayotgan zaharli gazlar, iflos suvlar va shovqin surondan zarar ko'rayotgan bo'lsa (Samarqand va Kattaqo'rg'on shaharlari), qishloq joylarda yerdan to'g'ri foydalanmaslik, ya'ni almashlab ekishni yo'lga qo'ymaslik, ekinlarga me'yoridan ortiqcha kimyoviy

o'g'it va dorilarning sepilishi natijasida tuproq holatining buzilishi kuzatiladi. Shuningdek, sanoat korxonalaridan va ekin maydonlaridan oqib chiqayotgan suvlarning daryo suvlariga qo'shilishi mavjud suv havzalarining yaroqsizlanishiga sabab bo'lmoqda.

Viloyatning ba'zi hududlarida aholining toza ichimlik suvi bilan to'liq ta'minlanmaganligi va daryo, ariq, kanal suvlarining to'g'ridan-to'g'ri iste'mol qilinishi aholi o'rtasida ayrim turdagi kasalliklarning kelib chiqishiga va ko'payishiga olib kelmoqda. Ayniqsa bunday holat Urgut va Bulung'ur tumanlarida ko'proq kuzatiladi. Bu esa, o'z navbatida, aholiga tibbiy yordam ko'rsatish muammolarini keltirib chiqaradi. Ichimlik suvining sifatiga bog'liq ravishda eng ko'p yuqumli kasalliklar, jumladan, oshqozon-ichak kasalliklari vujudga keladi. Masalan, yuqumli kasalliklar xususan aholi daryo, ariq, bevosita kanal suvini iste'mol qiladigan hududlarda ko'proq tarqalgan.

Aholi salomatligiga daryo suviga qo'shilgan oqava suvlardan tashqari, Zarafshon daryosining minerallashish darajasiga ham bog'liq. Jumladan, ta'kidlanayotgan hududlarda har yili turli xil yuqumli kasalliklarning tarqalishi kuzatiladi, ya'ni daryo yuqori oqimida yiliga har xil minerallarni yuvushi hisobiga ham turlicha minerallashadi. Ushbu suvni iste'mol qilishdan yosh bolalar aziyat chekadi. Bundan ko'rinib turibdiki, Urgut va Bulung'ur tumanlarida malakali bolalar shifokorlariga ehtiyoj yuqoriroq.

Joylarda aholiga maishiy xizmat ko'rsatishni yaxshilash uchun, eng avvalo, toza ichimlik suvi bilan ta'minlash choralarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Aholi o'rtasida tibbiy profilaktik tadbirlarning, ya'ni turli yuqumli kasalliklarga qarshi emlash ishlarini vaqtida o'tkazilishi, shifoxonalar, ambulatoriya-poliklinika, tez tibbiy yordam, shuningdek, qishloq vrachlik punktlarining faoliyatini nazorat qilish va moliyaviy ta'minlash ishlarini to'g'ri tashkil qilinishi aholiga tibbiy yordam ko'rsatish sohasidagi muammolarning bartaraf qilinishiga xizmat qiladi.

Ayni paytda shahar va qishloq aholisida tug'ilish darajasining pasayishi ko'plab yirik tug'ruqxonalarni ayrim qismlarining yillar davomida bo'shab

qolishiga sabab bo'lmoqda. Bunday holat, eng avvalo, yirik shaharlar va tuman markazlarida kuzatiladi. Binobarin, sharoitdan kelib chiqqan holda joylarda barcha qulayliklarga ega bo'lgan kichik-kichik tug'ruqxonalarni tashkil etish, yiriklarini esa qayta ixtisoslashtirib, ularni tibbiy xizmat ko'rsatuvchi majmualarga aylantirish lozim. Bunda aholi zichligiga, qulay transport tizimi va malakali shifokorlarning mavjudligiga alohida e'tibor qaratilishi kerak. Kichik, ixcham, yuqori malakali shifokorlar bilan ta'minlangan tug'ruqxonalar o'tish davridagi o'zgarishlarga tez moslashadi, va ularni zamonaviy asbob-uskunalar bilan jihozlash ham ancha oson kechadi. Jumladan, bunday shifoxonalarda shifokorlarning malaka toifalarini va ish faoliyatini nazorat qilish, sifat darajasini kuzatib borish ham birmuncha qulay.

2.5-jadval

Samarqand viloyati aholisining milliy tarkibi

Millatlar	1979 yil		1989 yil		2005 yil	
	Aholi soni	Jamiga nisbatan foizda (%)	Aholi soni	Jamiga nisbatan foizda (%)	Aholi soni	Jamiga nisbatan foizda (%)
Jami aholi	1782041	100,0	2281872	100,0	2867145	100,0
o'zbeklar	1398534	78,5	1764001	77,3	2437941	85,0
armanlar	10801	0,6	122118	0,5	9333	0,3
ruslar	118475	6,6	113522	5,0	63180	2,2
ukrainlar	8174	0,5	14226	0,6	9267	0,3
qozoqlar	7017	0,4	8185	0,4	5317	0,2
ozarbayjonlar	11917	0,7	6490	0,3	4533	0,2
yaxudiylar	7370	0,4	8037	0,4	2266	0,08
tojiklar	86550	4,9	209161	9,2	242550	8,5
turkmanlar	1293	0,1	2077	0,1	1422	0,05
tatarlar	55121	3,1	35044	1,5	3290	0,1
koreyslar	8531	0,5	8120	0,4	5710	0,2
boshqalar	68258	3,7	100791	4,3	82336	2,9

Tibbiyot sohasidagi yetishmovchiliklar aholi salomatligini tiklashda ayrim muammolarni keltirib chiqaradi. Tibbiyot sohasini isloh qilishda, avvalo barcha tibbiy muassasalarni zamonaviy asbob-uskunalar, malakali mutaxassislar bilan ta'minlash, aholi qatnovi uchun qulay transport tizimini yaratishga alohida e'tibor qaratish lozim. Bunday sharoitlar viloyat markazi va uning aglomeratsiyasiga kiruvchi Samarqand, Tayloq, Jomboy tumanlarida ancha yaxshi yo'lga qo'yilgan. Lekin viloyatning chekka hududlarida aholiga tibbiy xizmat ko'rsatish sifati birmuncha pastroq. Shu bois, tibbiyot sohasini isloh qilishda viloyatning chekka qishloqlarida tibbiy muassasalar faoliyatini yaxshilash va ularni rivojlantirishga alohida e'tibor berishni taqozo etadi.

Viloyat shahar va qishloq aholisining milliy tarkibida birmuncha farq mavjud bo'lib, shaharlarda millatlarning har xilligini, ya'ni etnik jihatdan boyligini kuzatish mumkin. Bunda boshqa millat vakillarining sanoat va ishlab chiqarishda bilim va tajribalari borligi sababli ular asosan shaharlarda joylashgan. Masalan, ruslar shahar aholisining 8,04 foizini tashkil etsa, qishloq aholisida esa bu ko'rsatkich 0,18 foizdan iborat, xolos. Armanlarning ulushi shahar aholisida 1,24%, qishloq aholisida 0,01 foizga teng. Bu jixatdan oradagi tafovut sezilarli darajada katta bo'lib, bunday holat urbanizatsiya jarayonining etnik jixatlarini o'zida aks ettiradi.

Aholining yosh tarkibi barcha jarayonlarda, shuningdek demografik vaziyatlarda xam muxim ahamiyatga ega. Bundan tashqari, u qator demografik ko'rsatkichlarga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Masalan, aholi tarkibida yoshlar miqdorining ko'p bo'lishi bu ijobiy hol. Sababi-aholi o'rtasida nikoh va tug'ilish darajasi yuqori va o'lim holatlari past bo'ladi. O'z navbatida, demografik jarayonlar aholining yosh tarkibini o'zgarishiga, ya'ni tug'ilishning kamayishi aholining qarishiga, aholi tarkibida keksalar sonining o'sishiga olib keladi. Shuning uchun aholining yosh tarkibi demografik jarayonlar bilan hamohang bo'lmog'i lozim.

Bu aloqadorlik aholining o'sish sur'atiga, uning tabiiy va mexanik harakatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Xulosa

Hozirgi kunda demografik jarayonlar, xususan aholining tabiiy harakatida ham o'ziga xos o'tish davri kechmoqda. Respublika-mizda aholi sonining o'sishi so'nggi yillarda pasaymoqda; bir yillik mutloq ko'payish 300 ming atrofida yoki 1,1-1,2 foizni tashkil etadi. Aholining ko'payishi to'la-tekis uning tabiiy harakati natijasi asosida yuzaga kelmoqda.

Aholi tabiiy ko'payishi va uning tug'ilish darajasidagi o'zgarishlar mamlakatimiz mintaqalarida turli tezlikda kuzatiladi. Tug'ilish kamayishining sur'ati tabiiy ko'payish yuqori bo'lgan mintaqalarida biroz yuqori; shahar va qishloq o'rtasida aholi tabiiy harakatidagi tafovutlar saqlanib, aholi tabiiy harakatidagi viloyatlarning mavqei o'zarib bormoqda.

Samarqand viloyati-aholi tug'ilish darajasi yuqori bo'lgan viloyatlar guruhiga kiradi. Biroq, bu yerda tug'ilish ko'rsatkichining pasayishidagi holat boshqa viloyatlarga nisbatan katta bo'lmagan tebranishga ega; shahar aholisida esa tug'ilish darajasining pastligi bo'yicha ayrim viloyatlardan, jumladan, Toshkent shahri, Toshkent va Buxoro viloyatlaridan alohida ajralib turadi; Viloyat qishloq joylarida esa tug'ilish birmuncha yuqori bo'lib, u Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax viloyatlaridan keyingi o'rinni egallaydi. Viloyat hududlarida aholi sonining o'sishida ma'lum darajada hududiy tafovutlar mavjud bo'lib, ular tumanlarning demografik xususiyatlari va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish imkoniyatlariga mos ravishda turlicha shakllanadi.

Samarqand viloyati tumanlari aholi sonining o'sish sur'ati bo'yicha uch guruhni ajratish mumkin. Ular quyidagilar:


1. Aholi soni o'sish darajasi yuqori bo'lgan tumanlar: Ishtixon, Payariq, Urgut, Narpay;
2. Demografik rivojlanish sur'ati o'rtacha bo'lgan xududlar: Kattaqo'rg'on, Bulung'ur, Jomboy, Oqdaryo, Pastdarg'om, Paxtachi, Nurobod;
3. Aholi soni nisbatan sekin o'sayotgan tumanlar: Tayloq, Samarqand va Qo'shrabot.

Viloyat tumanlari shahar va qishloq aholisining o'sishidagi tafovutlar, eng avvalo, joylarning iqtisodiy ixtisoslashuvi va aholi milliy tarkibining turlichaligiga bog'liq. Mazkur tumanlarda qishloq xo'jalik tarmoqlarini joylashtirish va uni qayta ishlash bilan bog'liq holda sanoatning tashkil etilishi aholi mashg'ulotiga va yashash tarziga ma'lum darajada ta'sir etadi. Qolgan tumanlarda shaharlar asosan qishloq tumanlari markazi vazifasini o'taganligi sababli shahar va qishloq aholisining o'sishidagi farqlar katta emas. Viloyat aholisining xududiy tarkibiga tabiiy sharoit bevosita ta'sir qiladi. Jumladan, aholi qadimdan tabiiy sharoiti qulay bo'lgan, sug'orma dexqonchilik rivojlangan hududlarda zich yashab kelgan. Hozirgi kunda ham aholi yirik va o'rta shaharlar hamda magistral yo'llar atrofining demografik sig'imi ancha yuqori. Binobarin, tumanlar miqyosida aholining joylanish salmog'i bir xil emas.

Demografik jarayonlarning rivojlanishi barcha sohalarni, shuningdek, iqtisodiyot, sog'liqni saqlash, maorif, aholiga xizmat ko'rsatish tizimlarining shakllanishiga ma'lum darajada o'z ta'sirini ko'rsatadi. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatning o'zgarishi demografik vaziyatda ham o'z aksini topadi. Bu davrda aholining turli qatlamlarida turmush tarzi turlicha kechib, ayniqsa kam ta'minlangan oilalarda yangi sharoitga moslashuv sezilarli darajada qiyinroq kechadi. Ularga, odatda, ko'p bolali oilalar, boquvchisini yo'qotganlar, yosh oilalar kabilar misol bo'lib, yangi davrga o'tishda oila byudjetini sharoitga moslashtirishda birmuncha qiyinchiliklarga duch keladi. Yuqoridagilarni hisobga olgan holda, mazkur oilalarga moddiy yordam berish maqsadida bozor

munosabatlariga o'tish davrida aholining kam ta'minlangan qatlamlarini kuchli ijtimoiy muhofaza qilish davlat tomonidan belgilab qo'yilgan. Aksariyat hollarda aholining ijtimoiy jihatdan ta'minlanganligi uning sonining o'sishiga ma'lum darajada ta'sir ko'rsatadi. Aholining o'sish sur'ati hududlarning ichki imkoniyatlariga mos ravishda turlicha shakllangan.

ILOVALAR



chizma. Samarqand viloyati va tumanlari aholisining tabiiy harakati
(1991-2005 yillar uchun o'rtacha ko'rsatkich, % da)

Ахлонику табиғий кўшайтмач

16,7 процьахь

16,7 проценти

16,8-20,2

20,3-23,7

23.8-27.2

27,3 промишлен издир



rymion, Se jura, Se

1 мкм былиндык 1 промилле

Keywords: *Acute myocardial infarction; Angiotensin-converting enzyme inhibitors; Beta-blockers; Calcium channel blockers; Digoxin; Diuretics; Nitroglycerin; Statins; Thrombolysis*

Members


1177

Түркістан

Keywords: *Self-esteem, self-esteem threat, self-esteem threat sensitivity, self-esteem threat sensitivity scale, self-esteem threat sensitivity scale-2*




© 2004 Blackwell Publishing Ltd *Journal of Internal Medicine* 255: 105–112

Түркістан маңында




Масштаб 1:1 000 000

Samarqand viloyati shahar va qishloq aholisining tabiiy harakati (har ming kishiga nisbatan, ‰ da)



ШАРТЛИ БЕЛГИЛАР



Аҳоли ўлими (%)
















Чегаралар:



Аҳоли манзилгоҳлари





Самарқанд viloyati aholisi o'limining tarkibi
(2000-2005 yillar uchun o'rtacha ko'rsatkich, jamiga nisbatan % hisobida)


- – Қон аylanish tizimi kasalliklari
- – Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari
- – Nafas olish a'zolari kasalliklari
- – Yuqumli kasalliklar
- – O'smalar
- – Baxtsiz hodisalar, zaharlanish va jarohat

jadval

Samarqand viloyati aholisi o'limining sabablari (2000-2005 yillar uchun o'rtacha ko'rsatkich, jamiga nisbatan foizda).

Shahar va tumanlar	qon aylanish tizimi kasalliklari	Ovqat hazm qilish a'zolari kasalliklari	Nafas olish a'zolari kasalliklari	Yuqumli kasalliklar	O'smalar	Boshqalar
Samarqand shahri	64,9	4,8	4,9	3,9	8,2	13,3
Kattaqo'rg'on shahri	64,4	6,5	7,6	3,4	5,6	12,5
Bulung'ur	54,7	6,9	15,5	4,7	4,3	13,9
Jomboy	55,5	6,5	12,6	3,8	4,6	17,0
Ishtixon	52,9	7,8	13,8	4,4	6,2	14,9
Kattaqo'rg'on	56,2	8,4	11,6	4,1	5,4	14,3
Narpay	61,1	5,9	9,6	3,3	3,2	16,9
Nurobod	52,1	7,6	11,8	3,4	7,1	18,0
Oqdaryo	59,8	6,7	8,7	3,7	5,0	16,1
Payariq	49,6	8,7	15,4	4,6	5,4	16,3
Pastdarg'om	52,7	7,6	11,8	3,3	6,2	18,4
Paxtachi	56,9	6,8	10,1	3,6	5,5	17,1
Samarqand	62,7	6,5	7,1	3,4	5,4	14,9
Tayloq	55,7	6,7	13,3	4,1	5,1	15,1
Urgut	56,5	6,8	14,7	4,8	2,3	14,9
qo'shrabot	47,3	9,2	17,7	3,9	4,5	17,4
Viloyat bo'yicha	57,7	6,6	10,9	2,9	5,5	15,4

Manba: Viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi ma'lumotlari.



Samarqand viloyati aholisining yosh va jinsiy tarkibi
(2005 yil; ming kishi)

O'RGANILGAN VA FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari.-T.: O'zbekiston, 1996.
2. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari.-T.: O'zbekiston, 1997.
3. Asanov G.R.-Aholi geografiyasi. O'quv qo'llanma.-T.: O'qituvchi, 1978.
4. Axmedov F., Yunusov R. Qishloq aholisining talab va ehtiyojlarini o'rganish.-T.: Mehnat, 1989.
5. Axmedov E.A. O'zbekiston shaharlari.-T.: O'zbekiston, 1991.
6. Axmedov E.A., Saidaminova Z. O'zbekiston Respublikasi. Qisqacha ma'lumotnoma.-T.: O'zbekiston, 1998.
7. Axmedov E. O'zbekiston shaharlari mustaqillik yillarida.-T.: Abu Ali ibn Sino nomidagi nashr, 2002.
8. Bo'riyeva M. O'zbekistonda tug'ilish va unga ta'sir etuvchi omillar. O'zbekiston aholisi va mehnat resurslari.-T., 1992.
9. Bo'riyeva M.R. O'zbekistonda oila demografiyasi.-T.: Universitet, 1997.
10. Valiyeva R. Naseleniye Samarkandskoy oblasti (obshaya xarakteristika): «Nauchnye trudy».-T.: TashGU, 1964.

Davlat attestatsiya komissiyasining majlisi

B A Y O N I

«____» _____ 20__ y.

Talaba _____ ning

_____ mavzudagi bitiruv malakaviy ishini kurib
chiqish bo'yicha.

Katnashganlar:

DAK raisi _____

DAK a'zolari _____

Bitiruv malakaviy ish

Raxbari _____

Maslaxatchisi _____

DAKga quyidagi xujjatlar taqdim qilingan:

Talaba _____ ning o'quv rejadagi fanlarni
topshirganligi xakida fakultet dekanatining 200 __ yil _____da bergan
ma'lumotnomasi.

Bitiruv malakaviy ish _____varaq hajmda bajarilgan.

Bitiruv malakaviy ish bo'yicha chizilgan chizmalar, rasmlar, jadvallar _____ta.

Rahbar mulohazasi _____

Taqrizchi _____

Bitiruv malakaviy ishning qisqa taqrizi _____tilda yozilgan.

Bitiruv malakaviy ishning bajarilishi bo'yicha talaba bergan axborotdan so'ng
_____ minut davomida talabaga ushbu savollar berildi:

1. _____

2. _____

3. _____

DAK karori

Talaba _____
_____ bitiruv malakaviy ishini _____ bahoga bajardi va himoya
qildi.

Talaba _____ ga «Geografiya va iqtisodiy bilim
asoslari» yo'nalishi bo'yicha bakalavr darajasi berilib, _____
namunadagi diplom yozilsin.

Quyidagilar alohida ta'kidlab o'tilsin _____

DAK raisi _____
(F.I.Sh., imzo)

A'zolar: _____

DAK kotibi: _____

Navoiy Davlat Pedagogika Instituti Tabiatshunoslik fakulteti
Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari ta'lim yo'nalishi IV kurs talabasi
Berdiyev Asliddinning Samarqand viloyati aholisini tabiiy harakatining
hududiy tafovutlari mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishiga

Rahbar xulosasi

Berdiyev Asliddinning Samarqand viloyati aholisini tabiiy harakatining tafovutlari mavzusida yozgan bitiruv malakaviy ishi Kirish, II bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat reja asosida bajarilgan.

Bitiruv malakaviy ishining birinchi bobida respublikamizdagi demografik vaziyat, respublika aholi sonining o'sishi va uning mintaqaviy xususiyatlari, respublika aholisining hududiy tarkibidagi o'zgarishlar, aholi tabiiy harakatining geografik jihatlarini, ikkinchi bobida esa Samarqand viloyati aholisining tabiiy harakati, aholi tabiiy harakatiga ta'sir etuvchi ijtimoiy-demografik omillar, Samarqand viloyati aholisining milliy tarkibi kabi mavzular keng yoritib berilgan.

Ushbu mavzuni yoritishda Berdiyev Asliddin quyidagi muammoli masalalarni imkon darajasida yoritishga harakat qilgan.

- Respublika aholisining tug'ilish va tabiiy ko'payishi ko'rsatkichlarining pasayish intensivligi;
- Aholi tabiiy harakatidagi xususiyatlar viloyat, shahar, qishloq tumanlari va qishloq fuqarolar yig'ini miqyosidagi tahlili;
- Aholi tabiiy harakatidagi hududiy tafovutlar va muammolar joylarning tabiiy sharoiti, demografik holati
- Respublika aholisi sonining mustaqillik yillarida o'sishi va unda tabiiy ko'payishning roli;
- Viloyatlar bo'yicha aholi tug'ilishi va tabiiy ko'payishi ko'rsatkichlari
- Samarqand viloyati misolida tug'ilish koeffitsiyentining ayollarning yosh guruhlari bo'yicha taqsimlanish xususiyatlari;
- Aholi demografik maylining bozor munosabatlariga o'tish davridagi o'zgarishi;

- Viloyat shahar va qishloq tumanlarining aholining tug'ilish, o'lim va tabiiy ko'payish darajasi bo'yicha tabaqalanishi;

- Aholi salomatligi va ekologik muammolari;

- Mintaqa aholisi soni va milliy tarkibi.

Bundan tashqari malakaviy bitiruv ishi tarkibida 11ta turli mazmundagi jadvallar va ilova mavjud bo'lib, bu ishning mazmunini boyitishda xizmat qilgan.

Berdiyev Asliddin mavjud adabiyotlardan, ilmiy to'plamlardan oqilona foydalangan. Davlat Ta'lim Standartlari talablariga javob bera oladigan tarzda o'z ishini yozib tugatgan. Men bu ishni mazmunan tugatilgan deb hisoblab D.A.K. yig'ilishida himoya qilishiga tavsiya etaman.

Geografiya kafedrasida katta o'qituvchisi:

Shodiyev S.R.